



IJTIMOYIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

SHAVKAT MIRZIYOYEV, MAQSUDA VORISOVA VA BAHROM ABDUHALIMOV PREZIDENTLIKKA NOMZOD SIFATIDA RO'YXATDAN O'TKAZILDI

Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Joriy yilning 9-10-sentabr kuni siyosiy partiyalar tomonidan tegishli hujjatlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsatilgan nomzodlarni qo'llab-quvvatlovchi imzo varaqalari taqdim etilgan edi. Saylov kodeksining 39-moddasiga binoan, siyosiy partiyalar tomonidan taqdim etilgan imzo varaqalarining to'g'ri to'ldirilganligi Markaziy saylov komissiyasi qarori bilan tuzilgan Ekspertlar guruhi tomonidan tekshirildi.

Majlis davomida partiyalar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsatilgan nomzodni qo'llab-quvvatlovchi imzo varaqalari qonun talablariga mosligi inobatga olinib, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan Vorisova Maqsuda Azizovna, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan Abdurahimov Bahrom Abdurahimovich

va O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan Mirziyoyev Shavkat Miromonovich O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar etib ro'yxatga olindi.

Saylov kodeksining 40-moddasiga muvofiq, Markaziy saylov komissiyasi Nomzodlar ro'yxatga olinganidan keyin besh kunlik muddatda tegishli saylov komissiyasi ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi xabarni nomzodning familiyasini, ismini, otasining ismini, tug'ilgan yilini, partiya mansubligini, egalab turgan lavozimini (mashg'ulotining turini), ish va yashash joyini, shuningdek, uni nomzod etib ko'rsatgan siyosiy partiyani ko'rsatgan holda e'lon qiladi.

Shuningdek, majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida xalqaro tashkilotlardan qatnashadigan kuzatuvchilarni akkreditatsiya qilish to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.



Majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida xalqaro tashkilotlardan qatnashadigan kuzatuvchilarni akkreditatsiya qilish to'g'risidagi MSK qaroriga muvofiq Yaponiya, Gruzija, Rossiya Federatsiyasi, Tatariston va Belarus Respublikalaridan



6 nafar xorijiy kuzatuvchi ro'yxatdan o'tkazildi.

Komissiya a'zolari tomonidan ommaviy axborot vositalari vakillarini akkreditatsiyadan o'tkazish masalasi ham ko'rib chiqildi va Markaziy saylov komissiyasiga kelib tushgan yana 5 ta mahalliy

ommaviy axborot vositasining jami 23 nafar vakili akkreditatsiyadan o'tkazildi. Endilikda akkreditatsiyadan o'tkazilgan mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari jami 930 nafarni tashkil etmoqda.

O'ZA

YETAKCHILAR FORUMI

Murg'ak qablarni buyuk maqsadlar sari ilhomlantirayotgan, 20 yillik tajribaga ega "Kamalak" bolalar tashkiloti delegatsiyasi 6-8-sentabr kunlari "Zubryonok" dagi xalqaro forumda munosib ishtirok etdi.



"Yetakchilarning harakat qilish vaqti keldi" III xalqaro forumi



Belarus respublikasi Minsk shahrida "Yetakchilarning harakat qilish vaqti keldi" III xalqaro forumi o'zgacha ruh va ko'tarinki kayfiyatda tashkil qilindi. Tadbirda respublika "Kamalak" bolalar tashkiloti raisi Indira Xoldarova hamda Samarqand viloyati "Kamalak"

bolalar tashkiloti bosh mutaxassis Nigina Murodova delegatsiyamiz tarkibida ishtirok etdi.

Xalqaro forum uchun 50 yil avval tashkil etilgan, 76 gektar maydonni egallagan, Yetakchi klub, San'at saroyi, Aqlli uy va boshqa ko'plab komplekslarni

o'z ichiga olgan nufuzli "Zubryonok" oromgohi tanlangan. Shuningdek, oromgoh hududida katta metodologik markaz faoliyat yuritadi va u yerda yoshlar, bolalar tashkilotlari, pedagoglar hamda yetakchilar uchun 40-50 yillik bazalar mavjud.

Belarus Pioneerlar tashkiloti tizimida faoliyat olib borayotgan yetakchilar malakasini oshirish, xalqaro fikr almashish va networking ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan III xalqaro forumda O'zbekiston delegatsiyasi mamlakatda mavjud yagona bolalar tashkiloti haqida ma'lumot va tajribalarini ulashdi.

Davomi 4-sahifada.

24 OKTABR 2021-YIL
O'ZBEKISTON
PREZIDENTI
SAYLOVI

PREZIDENTLIK SAYLOVLARI VA YOSHLAR

Mamlakatimizda 2021-yil 24-oktabr kuni bo'lib o'tadigan Prezidentlik saylovlari jarayonlarida yoshlarning faol ishtiroki kutilmoqda. Xususan, partiyalardan Prezidentlikka ko'rsatilgan nomzodlarning saylovoldi targ'ibot ishlarini olib borish, ovoz berish jarayonlariga yosh avlod vakillarini keng jalb etishda partiyalar qoshidagi "Yoshlar qanoti" faollarining o'ri katta bo'ladi.

Bunday keng ko'lami siyosiy tadbir oldidan yoshlarning ishtiroki, tayyorgarlik darajasini bilish maqsadida "Yuksalish" umummilliy harakati mamlakatimizdagi partiyalar safidagi faol yoshlarga bir nechta savollar bilan murojaat etdi. Quyida yetakchi yoshlarning javoblari bilan tanishasiz.

Savollar:

1. Hozirgi kunda partiyangizning qancha a'zosi bor? Shulardan necha nafarini 18 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan fuqarolar tashkil etadi? Bu ko'rsatkich oxirgi parlament saylovlaridan (2019-yil dekabr oyida bo'lib o'tgan) so'ng qanchaga o'zgardi?

2. "Yoshlar qanoti" yoshlar bilan ishlashda nimalarga e'tibor qaratadi? Yoshlarni partiya faoliyatiga, shu jumladan, saylovlarga jalb qilishda qaysi usul va kommunikatsiya kanallaridan foydalaniladi?

3. Partiya yoshlarning siyosiy va huquqiy savodxonligini oshirish uchun nimalar qilmoqda? Yosh-

lar uchun "ijtimoiy liftlar" mavjudmi? Misol uchun, yosh yetakchilar orasidan tuman, shahar va viloyat miqyosida deputat bo'lganlar bormi? (Bo'lsa, misol keltiring).

4. Partiyangiz saylovoldi dasturini shakllantirishda "Yoshlar qanoti" vakillarining ishtiroki qanday, ularning fikr va g'oyalari inobatga olinadimi? Yosh siyosiy yetakchilarning tashabbuslari qo'llab-quvvatlanadimi? (misollar keltiring)

5. 2021-yil 24-oktabr kuni bo'lib o'tadigan Prezident sayloviga tayyorgarlik jarayonida "Yoshlar qanoti" vakillarining o'ri qanday?

Davomi 2-3-sahifalarda.



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

man (shahar) Kengashlariga 109 nafar yoshlar deputatlikka saylangan.

Bundan tashqari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentiga O'zLiDeP-dan 74 nafar yosh saylangan.

4. — "Yoshlar qanoti" vakillari partiyaning saylovoldi dasturini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. Xususan, partiyaning saylovoldi dasturida "Yoshlar qanoti" ilgari surgan yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarish, ular orasidan yetakchilarni kamolga yetkazish, kitobxonlik madaniyatini shakl-

madaniyat institutining jurnalistika mutaxassisligini namolagan.

2012-yildan buyon "Adolat" SDPda faoliyat olib bormoqda.

Maqsadi: kelajakda partiya tizimida yoshlarning faolligini yanada oshirish, mahalliy Kengashlar va parlament deputatlarining yanada ko'proq qismi yoshlardan saylanishi-ga o'z hissasini qo'shish.

1. — Partiya a'zolari soni 500 691 nafarni tashkil etib, ulardan 186 981 nafari (yoki 37 foizi) 18 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan fuqarolardir. Oxirgi parlament saylovlardan so'ng par-

lavra suhbatlari, "Mening qarashim" nomli so'rovnomalar tashkil etildi.

Partiyamizda har doim yoshlar qarashlari qo'llab-quvvatlanib, ularga keng imkoniyatlar yaratilgan, "ijtimoiy lift" har doim mavjud. Bugungi kunda "Yosh adolatchilar" qanoti a'zolari orasidan 43 nafari xalq deputatlari viloyat, tuman(shahar) Kengashlariga deputatlikka saylangan. Masalan, Farg'onalik faol yoshlardan Muhammad Valiyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, Buxoro viloyati "Yoshlar qanoti" Kengashi faoli Shehroz Norov Kogon tumani Kengashi deputati. O'z faoliyatini partiyaning tuman Kengashlari-



Maqsadi: partiyadan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

PREZIDENTLIK SAYLOVLARI

I. Jamshid JALOLOV, Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi mutaxassisi, "Yoshlar qanoti" yetakchisi.

1984-yilda tug'ilgan. 2009-yili Soliq akademiyasini tamomlagan. Mutaxassisligi iqtisodchi.

Maqsadi: mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini, davlat byudjeti manfaatlarini ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromadlar qismini mustahkamlash, soliq tizimini soddalashtirish, moliya bozori barqarorligini ta'minlash va qat'iy pul-kredit siyosatini amalga oshirish hamda tadbirkorlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga munosib hissa qo'shish.

1. — Hozirgi kunda O'zLiDeP-ga jami 1 004 005 nafar a'zo qabul qilingan bo'lib, shulardan 502 113 nafari 18 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan fuqarolar, ya'ni yoshlardan iborat.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi parlament saylovlardan so'ng partiya a'zolari soni qariyb 240 ming nafarga yoki 25 foizga oshgan.

2. — "Yoshlar qanoti" yoshlar bilan ishlashda asosiy e'tiborni har jihatdan barkamol, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlarga ega yoshlarni tarbiyalash, yoshlar intellektual, ma'naviy salohiyatini, ijtimoiy faolligini oshirishga qaratadi.

Yoshlarni saylovlarga jalb qilish hamda faol ishtirok etishini ta'minlashda "XXI asr" gazetasi hamda partiyaning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari qo'l kelmoqda.

3. — Yoshlarning siyosiy, huquqiy madaniyati va ongini oshirish, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini, siyosiy jarayonlarga ogli munosabatini, turlicha tashqi va ichki tahdidlarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitetini shakllantirish partiyaning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda yosh yetakchilar orasidan jami 127 nafar, jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga 7 nafar, xalq deputatlari viloyat Kengashiga 11 nafar va xalq deputatlari tu-

lantirishga doir kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, ona Vatanga muhabbat, uning taqdiriga daxldorlik tuyg'usini qoror topirish borasidagi takliflar inobatga olingan va dasturda o'z aksini topgan.

5. — Partiya qoshida yosh saylovchilar, volontyorlar bilan ishlash guruhi tuzilib, yosh saylovchilar va volontyorlar ro'yxati shakllantirilgan. Ular ishtirokida tuzilgan "Targ'ibot guruhleri" o'z ishini boshladi. Targ'ibot guruhleri uchun onlayn o'quv-seminarlar o'tkazib kelinmoqda, ular saylovoldi targ'ibot va tarqatma materiallari bilan ta'minlangan.

"Targ'ibot guruhleri joylashuvi sxemasi" asosida yosh saylovchilar va volontyorlar ishini muvofiqlashtirish hamda monitoring qilish maqsadida har bir hududda "Monitoring guruhleri" ham tuzilgan. Monitoring guruhleri targ'ibot guruhlarining kunlik amalga oshirgan ishlarini umumlashtirib, ma'lumotlarni Markaziy saylovoldi shtabi yo'nalish koordinatori-ga taqdim etib boradi.



II. Gulniso SAIDOVA, "Adolat" sotsial demokratik partiyasi Markaziy apparati Ayollar va yoshlarning siyosiy faolligini oshirish boshqarmasi boshlig'i.

1985-yilda tug'ilgan, O'zbekiston davlat san'at va

tiya tarkibidagi yoshlar soni 26 386 nafarga oshdi. Yoshlarning 99 234 nafari yigitlar, 87 747 nafari qizlar tashkil qiladi.

2. — Partiyaning "Yoshlar qanoti" yoshlar bilan ishlashda asosan ularning qiziqishlari, qarashlarini ifoda etadigan dasturlar, chora-tadbirlar tuzishiga, ularni siyosiy jarayonlarga ko'proq jalb etishga katta e'tibor qaratadi. Yoshlarni partiya faoliyatini va saylovlarga jalb qilishda ommaviy mitinglar, aksiyalar, yoshlar manfaatlarini aks etgan tadbirlar tashkilashtirib, fikr va takliflarni yuqori turuvchi tashkilotlarga yetkazishda ko'maklashadi.

Jumladan, karantin davrida onlayn tarzda bir qancha tanlovlar o'tkazdik. "Biz baxtiyor va quvnoq oilamiz", "Uyda qolib bobolarim hayotini o'rganaman", "Eng yaxshi hunarmand", "Virusga to'siq, mehrga ochiqmiz" aksiyasi doirasida "Eng yaxshi videorolik", "Xotira muqaddas, qadr ulug'", "Ifodali o'qish", "Huquq bilimdonlari" kabi tadbir va tanlovlar yoshlarning o'qishiga, o'z ist'edodini namoyon qilishiga zamin yaratdi. Pandemiya davrida tashkil qilingan onlayn tadbir va tanlovlarga jami 200 ming nafar yosh qamrab olingan.

3. — Yoshlarning siyosiy va huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha partiya bir qator loyihalarni, tadbirlar tashkilashtirib kelmoqda. Misol uchun, maktab o'quvchilari orasida "Konstitutsiya bilimdoni" ko'rik-tanlovi, "Korrupsiya mening qarashimda" mavzusida insholar tanlovi, "Talabning kichik innovatsion loyihasi", "Ta'lim sifati partiya nigohida", "Vatan kelajagi yoshlar qo'lida", "Bir oyda bir ish o'rni" "Maktabda ijtimoiy tenglik", "Yaxshi kasb – yetuk mutaxassis – munosib ish o'rni" loyihalari, "Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish: mas'uliyat va majburiyat", "Yoshlarni axborot xurujlaridan asraylik", "Yoshlarni turli ekstremistik oqimlardan himoya qilish" kabi mavzularda

dan boshlab, mehnati, faolligi va shijoati bilan partiyaning viloyat Kengashlari hamda Markaziy apparatida davom ettirayotgan yoshlarimiz ham bor.

4. — Albatta, "Adolat" SDP "Yoshlar qanoti" vakillari partiyaning ajralmas muhim tarkibiy qismi hisoblanib, partiya o'zining ustuvor maqsadlarini belgilash va amalga oshirishda hamisha yoshlarga tayangan hamda ularning g'oya va takliflarini qo'llab-quvvatlab keladi. Masalan: Yoshlarning ta'limga qiziqishlari, oliy ta'lim olishga intilishlari bo'yicha ularning tashabbusi va takliflari partiya saylovoldi dasturining "Yurt kelajagi vatanparvar yoshlar qo'lida" bandiga ustuvor vazifa sifatida kiritilib, yoshlarning oliy ta'limga qamrovini kengaytirish, ta'lim-tarbiya sohasida uzviylikni ta'minlash masalalari aynan yoshlar tashabbusi bilan kiritilgan.

5. — Bo'lg'usi saylovlarga tayyorgarlik jarayonida "Yosh adolatchilar qanoti" a'zolari nomzodni aholi, ayniqsa, yoshlar orasida tanitishda muhim rol o'ynaydi. Holbuki, ular ishtirokida bir qator mitinglar, aksiya va chorlovlar o'tkaziladi. Shuningdek, "Yosh adolatchilar shtablari" tuzilgan bo'lib, ular 24-oktabrda bo'lib o'tadigan Prezidentlik saylovlari "Yoshlar qanoti" vakillarining o'rni va ularning siyosiy faolligini ta'minlashda muhim o'rinni tutadi.

III. Bekzod TO'RAYEV, O'zMTDP Markaziy kengashi Ijroiya qo'mitasi devoni Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari bo'limi boshlig'i.

1990-yili Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanida tug'ilgan. 2014-yilda Qarshi davlat universitetining Milliy g'oya, huquq va ma'naviyat asoslari yo'nalishini tamomlagan. 2014-yildan boshlab O'zMTDP tizimida faoliyat yuritib keladi.

deputatligiga va keyinchalik Senat a'zoriga saylanish orqali ishlab chiqilayotgan va qabul qilinayotgan qonunlarning xalqchilligini ta'minlash.

1. — 2021-yil 1-iyul holatiga partiya a'zolari soni 343 468 nafarni tashkil qiladi. Shundan 30 yoshgacha bo'lgan a'zolari soni 169 454 nafar. 2019-yilgi saylovlar arafasida bu ko'rsatkich 275 576 (shundan yoshlar 142636) nafarga teng edi.

Bugungi yoshlar kechagidan farq qiladi. Ular ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki va tashabbuskorligi bilan ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Avvalgi saylovlarda targ'ibot ishlari va saylovoldi kampaniyaga yoshlarni jalb etishda asosiy tashabbuskor siyosiy partiyaning o'zi bo'lgan bo'lsa, joriy yilgi Prezidentlik saylovlarda partiyaning ishtiroki yuzasidan yoshlarning o'zi tashabbus ko'rsatayotganini kuzatish mumkin.

2. — Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, jamiyatda yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faol qatlamga aylantirish hamda ularning siyosiy-huquqiy bilim va ko'nikmalarini amalda boyitish, qonunchilik va qonun ijodkorligi jarayoniga keng jalb qilish partiyaning doimiy diqqat markazida.

Birinchi navbatda, partiya "Yoshlar qanoti" qoshida tashkil qilingan ko'ngilli yoshlardan iborat "Ko'mak" targ'ibot guruhi "tengdoshga — tengdosh" tamoyili asosida yoshlarni partiya safiga keng jalb qilmoqda. "Iyun — Yoshlar oyligi" doirasida partiya o'tkazgan tanlov, loyiha va tadbirlarda respublika bo'ylab jami 30 mingdan ortiq yoshlar qamrab olindi.

Partiyaning "Uyma-uy" va "Xizmat — beminnat" loyihalari orqali har yili minglab yoshlarning jamiyatda o'z o'rini topishiga ko'maklashiladi.

"Uyma-uy" loyihasi doirasida Respublika bo'ylab 12865 ta

xonadonga tashrif buyurilgan, 9125 nafar uyushmagan yosh qamrab olingan, shundan 1950 nafari ish bilan ta'minlangan, 764 nafariga kredit masalasida ko'mak ko'rsatilgan, 4545 nafariga huquqiy maslahatlar berilgan va 1518 nafar yoshni joylarda deputatlar nazoratga olingan.

"Xizmat – beminnat" loyihasi asosida 2021-yilning dastlabki 7 oyi davomida respublika bo'yicha 818 ta o'quv kurslari tashkil qilinib, "Yoshlar daftari" ga kiritilgan o'zlashtirishi past va boquvchisi yo'q bo'lgan 3372 nafardan ziyod yoshga "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi", Xalqaro miqyosdagi tanlovlar, fan olimpiadalari g'oliblaridan iborat ko'ngilli va iqtidorli ustozlar tomonidan qo'shimcha bepul ta'lim berildi. Loyiha ning ta'lim yo'nalishidagi faoliyati natijasida 144 nafar yosh talabalikka qabul qilindi.

4. — Partiya saylovoldi Dasturini ishlab chiqish maqsadida tuzilgan ekspertlar guruhi tarkibiga faol yoshlar vakillari kiritilgan. Shuningdek, "Yoshlar qanoti" faollari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda "Ko'mak" targ'ibot guruhi a'zolari ishtirokida maslahat yig'ilishlari o'tkazib turiladi. Yig'ilishlarda yoshlar amaldagi qonunchilik, yangi qabul qilinayotgan qonun loyihalari takomillashtirishga oid takliflarni ishlab chiqadi.

Joriy yil 24-25-iyun kunlari Toshkent shahrida "Yoshlar kelajak drayverlari" shiori ostida partiya Yoshlar qanotining I respublika forumi tashkil etildi. Forumga "Yoshlar qanoti" a'zolari, Yoshlar parlamentining partiya saylangan a'zolari va volontyorlar jalb etildi. Ishirokchilar partiya va nomzodning saylovoldi Dasturi uchun o'z takliflarini ishlab chiqib, tegishli tartibda taqdim etishdi.

247 721 nafarni tashkil etib, shundan yoshlar 101 340 nafar (40 foiz) edi. Bundan ko'rinadiki, tizimda yoshlar soni ikki barbardan ham ko'proq ortgan.

2. — Tizimda yoshlar bilan ishlashda ularning sohasiga va mamlakatimizda bo'layotgan tub o'zgarishlarga munosabati, shaxsiy pozitsiyasi, tashabbuskorligi, intiluvchanligi va yangiliklar bilan ishlashning zamonaviy usullaridan foydalanish qobiliyati, eng muhimi, liderlik salohiyatiga qaraladi. Yoshlarni partiya jalb etishda ijtimoiy tarmoqlardagi barcha kanallarimizdan foydalanamiz.

Ayni paytda partiya qoshida "Yoshlar media markazi"ni tashkil etish rejalashtirilgan. U yerda yoshlar ekologik muammolari hal etish bo'yicha o'z tashabbuslarini ijtimoiy tarmoqlarga mos formatda tayyorlash, qisqa muddatda videoroliklar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi, davlat hokimiyati va boshqaruv organ-

qator takliflari inobatga olingan. Ekologik ilmiy-tadqiqot izlanishlarida ayollar va yoshlarning ishtirokini yanada oshirish va ularni rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, oila va mahallada insonning tabiatga munosabatini tubdan o'zgartirish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ilmiy tashkilotlarning ilmiy-innovatsion faoliyatini iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ehtiyojlariga to'liq moslashtirish, yuqori samarador ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish va boshqa qator bandler ularning takliflari bilan boyitilgan.

5. — O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2021-yil 14-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha asosiy tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning saylovoldi

bo'lsa, 2019-yilda 231 270, 2020-yilda 234 998 nafardan iborat edi.

2. — "Yoshlar qanoti" faollari partiya maqsad va vazifalarini yoshlar orasida keng targ'ib qilish, yoshlarning muammolarini hal etishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tashabbus ko'rsatmoqda. Yoshlar bandlegini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga qaratilgan "Yoshlarga ko'mak" loyihasi doirasida joriy yilning o'tgan davrida partiya kengashlari tashabbusi bilan 56 ta tumanda bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmakalari tashkil etildi. Tadbirlarga 200 mingdan ziyod yoshlar qamrab olindi. Xususan, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 36 ming yoshning muammolari hal etildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz yoshlarning 24 ming nafari ish bilan ta'minlandi. Xotin-qizlardan 43 ming nafari, yoshlardan 57 ming nafari haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi.

"Deputat va yoshlar" loyihasi doirasida 202 ta tuman-shaharda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman(shahar) Kengashlari deputatlarining yoshlar bilan uchrashuvlari, sayyor qabullar tashkil etilib, yoshlarning muammolariga qonunchilik doirasida yechim topish bo'yicha 500 dan ortiq takliflar olinib, O'zbekiston XDP Fraksiyasi va sotsiallar kun tartibiga kiritilishiga erishildi.

"Yoshlarga oid qonunchilikni takomillashtirishda yoshlarning o'rimi", "Ijtimoiy maqsadlarni internet tarmoqlarda ommalashtirish", "Yoshlar qanoti innovatsion internet g'oyalari tashabbuskor", "Internet xavfsizligi: muammo va yechim" va "Jinoiyatsiz kelajak sari" mavzularida davra suhbatlari va tadbirlar, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga doir "Sog'lom yoshlar – sog'lom jamiyat asosi" sport aksiyalari yoshlarda unutilmas taassurotlar qoldirmoqda.

3. — Partiya tizimida yoshlarni siyosiy-huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan o'quvlar, konferensiyalar muntazam tashkil etib borilmoqda. Partiya qoshida "Yosh siyosatchilar", "Yosh liderlar" klubi tashkil etilgan bo'lib, klub a'zolari partiya bilan doimiy hamkorlikda faoliyat olib boradi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida 27 nafar, Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida 1 nafar faol yosh deputatimiz faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, Parlament huzuridagi Yoshlar parlamentiga ham partiyamizning faol yoshlaridan 63 nafari a'zo sifatida saylandi.

4. — "Yoshlar qanoti" vakillari partiyani saylovoldi dasturini shakllantirishda o'z takliflari bilan faol ishtirok etdi, ayniqsa, Yoshlar parlamenti vakillari bildirgan takliflar saylovoldi dasturida o'z aksini topdi.

5. — Bu yilgi Prezidentlik saylovida "Yoshlar qanoti" vakillarining o'ri juda katta bo'lib, faol yoshlardan "Ko'ngillilar guruhi" tashkil etilgan. Bu jarayonga jalb etilgan 3000 dan ziyod yoshlarimiz partiyani saylovoldi targ'ibot-tashviqot ishlarida ishtirok etish uchun tayyorgarlik ko'rmoqda.

VA YOSHLAR

3. O'ZMTDP Markaziy kengashi huzurida o'quv-uslubiy va tadqiqot markazi tashkil etilgan. Markaz yoshlarning siyosiy-huquqiy savodxonligini oshirish uchun turli o'quv-seminarlar o'tkazib kelmoqda. O'quv qo'llanmalar va videodarslar tayyorlanib, joylarga yetkazib berilmoqda. Xususan, "Ko'mak" targ'ibot guruhi ta'lim muassasalarida 500 dan ortiq targ'ibot tadbirlarini o'tkazdi.

Partiyaning "Deputat bilan yuzma-yuz", "Ikki og'iz gap", "Liderlar onlayn maktabi" hamda "Vatandosh bilan suhbat" loyihalari jamoatchilik e'tiborini qozonmoqda.

Masalan, "Deputat bilan yuzma-yuz" loyihasida partiya saylangan deputatlar yoshlar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazib, ularning siyosiy-huquqiy bilim va ko'nikmalarini oshirishga hissa qo'shyapti.

"Liderlar onlayn maktabi" loyihasida vazirlar, hokimlar, tashkilot va muassasa rahbarlari, ularning o'rinbosarlari bilan muloqotlar tashkil qilinmoqda. Unda yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan ishtirok etib, siyosiy-huquqiy savodxonligini oshirmoqda.

Partiyaning muvaffaqiyatli, yangi loyihalaridan biri "Vatandosh bilan suhbat"dir. Loyiha doirasida yoshlar turli sohalarida yutuqqa erishgan xorijdagi hamyurtlarimiz bilan suhbatlashish imkoniga ega bo'ladi. Shu kunga qadar yoshlarimiz Kanada, AQSH, Germaniya, Yaponiya, Singapur, Turkiya va Finlandiyada turli darajadagi yutuqlarga erishgan 10 nafar vatandoshimiz bilan onlayn muloqot qilish imkoniga ega bo'ldi.

Faol yoshlarning karyerasi o'sib borishini ta'minlash doimiy e'tiborimizda. Jumladan, 2019-yilgi saylovlarda "Yoshlar qanoti" faollarining 2 nafari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i kengesi, yana 2 nafar xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashi deputatligiga, 39 nafar tuman va shahar Kengashi deputatligiga saylandi.

5. — Partiyada volontyorlar bilan ishlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Yoshlar qanoti va "Ko'mak" targ'ibot guruhi a'zolari tomondan partiya saylangan a'zolari nomzodning targ'ibot va tashviqot ishlarini tashkil etishda ishtirok etishadi.



IV. Islombek G'ULOMOV, O'zbekiston Ekologik partiyasi "Yoshlar qanoti" yetakchisi.

1989-yil Namangan viloyati, Norin tumanida tug'ilgan. 2014-yilda Namangan davlat universitetining Ekologiya va tabiatdan foydalanish yo'nalishini, 2019-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi qoshidagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining qayta tayyorlov kursini tamomlagan. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'ZMU ijtimoiy ish (Yoshlar bilan ishlarni tashkil etish) yo'nalishi 2-bosqich magistranti.

Maqsadi: bor bilim va salohiyatini safarbar etib, mamlakatimizda ekologik muhitni yaxshilash va tizimni ilm-fan yutuqlari asosida rivojlantirish.

1. — O'zbekiston Ekologik partiyasining a'zolari soni 450 053 nafar bo'lib, ularning 220 539 nafari (49 foizi) yoshlardir. 2019-yilda partiya a'zolari

lari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatadi.

3. — Partiya Markaziy Kengashida ekologik ta'lim-tarbiya, aholi, partiya a'zolari va kadrlarning ekologik savodxonligini oshirish bo'limi mavjud bo'lib, haftaning har seshanba kuni yoshlarning siyosiy va huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha onlayn seminar treninglar o'tkazmoqda. Treninglarda yetuk olimlar, soha mutaxassislari, ekspertlar, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, mahalliy Kengashlarga partiya saylangan deputatlar doimiy ishtirok etishadi.

Buning natijasida partiya tizimida ish faoliyatini olib borish jarayonida siyosiy-huquqiy faolligi ortib, 37 nafar yosh xalq deputatlari viloyat va mahalliy Kengashlariga saylangan.

Masalan, Qashqadaryo viloyat Kengashiga — Sitora Furqatova, Abramjon Davronov, Shohruh Muxtorov, Rustam Ibrohimov; Surxondaryo viloyatida Shahobiddin Boqijonov; Xorazm viloyatida Ruslan Qurbonov, Kambor Shojonov; Jizzax viloyatida Mirolim Rahmatov; Samarqand viloyatida Asomiddin Ziyatov va boshqalar saylangan.

Oliy Majlis Senati va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi "Yoshlar parlamenti" a'zolarining 28 nafari bizning partiya vakillari. Ular orasida Mohigul Abdurahimova, Muxamedali Dauletmuratov, Dilmurod Akbarov, Muxlisa Mamanova kabi yosh doktorant olimlar ham bor.

4. — O'zbekiston Ekologik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning saylovoldi dasturi loyihisini ishlab chiqish bo'yicha tuzilgan ishchi guruhi va ekspertlar guruhiga partiya "Yoshlar qanoti" vakillari kiritilgan.

Dasturning Sog'liqni saqlash, ta'lim, ilm-fan va madaniyat rivojlanish yo'nalishida yoshlarning

tashviqotini olib borish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari asosida joylarda targ'ibot ishlarini olib boruvchi yosh volontyorlar guruhi tashkil etilgan. Ular saylov uchastkalari bo'yicha yig'ilgan bo'lib, saylov jarayonidan aholining xabardorligini oshirish, saylovlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash bilan shug'ullanadi.




V. Jahongir KABIRJONOV, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi Yoshlar ishlari bo'yicha sektor mudiri, "Yoshlar qanoti" rahbari.

1994-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. 2017-yilda O'zbekiston Milliy universitetining ijtimoiy fanlar fakulteti sotsiologiya yo'nalishini tamomlagan. Mutaxassisligi – sotsiolog.

Maqsadi: yurtimiz farovonligini ta'minlashga, ayniqsa, kam ta'minlangan nogiron shaxslarning hayotini yengillashtirish, ularga yetarli sharoitlar yaratishga hissa qo'shish.

1. — XDPning a'zolari soni 500 mingdan ziyod bo'lib, 247 mingdan ortig'ini 18-30 yoshdagi fuqarolar tashkil etadi. Partiya safarida yoshlarning ulushi yil sayin ortib bormoqda. Misol uchun, 2018-yilda ular 229 830 nafarni tashkil qilgan

Mamlakatimiz o'z mustaqil taraqqiyot yo'lining o'ttiz yilini bosib o'tdi. Tarix oldida bu muddat kiprik qoqqulik lahzalariga tengdir. Ammo bu yillar yurtimiz tarixida o'ta mas'uliyatli va sharaflil davri tashkil etdi. Har birimizning hayotimizda, mamlakat taqdirida muhim va keskin o'zgarishlar yuz berdi, turmush tarzimiz o'zgarib, o'zligimizni anglay boshladik. Qisqa davr ichida davlat va jamiyat qurilishida, huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda, eng muhimi odamlarimizning ong-u shuurida tom ma'noda yangi-chaqarash va yangicha fikrlash tarzi shakllandi.



YOSHLARGA E'TIBOR — MAMLAKAT TARAQQIYOTINING KALITI

Jamiyat taraqqiyoti, milliy farovonlik hamisha yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan yangi kadrlar, ularning yuksak malakasi bilan bog'liq bo'lib kelgan. Keksa avlod erishgan yutuqlarga, ular to'plagan tajribaga tayanib, mamlakatning ilmiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy salohiyatini yanada ko'tarish hamisha yoshlar zimmasiga tushgan.

Bundan roppa-rosa bir asr oldin ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy tarbiya haqida kuyinib bunday degan: "Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga javoban: birinchi — uy tarbiyasidir. Bu Onalarning vazifasidir. Ikkinchi — maktab va madrasa tarbiyasidir. Bu Otalar, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir".

Mamlakatimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etadi. Ularning ulg'ayib, komil inson bo'lishi va har sohada yanada muvaffaqiyatga erishishi uchun o'tgan o'ttiz yil davomida davlatimiz tomonidan keng ko'lami islohotlar olib borildi, 2021-yil esa ular uchun ulkan imkoniyatlar eshiklarini ochib berdi.

2021-yilning — Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili deb nomlanishi yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadga erishishda asosiy tayanchimiz bo'lgan yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarda o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligining yaqqol namunasidir.

Umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim muassasalarini tamomlab, mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yigit-qizlarni munosib ish va daromad manbaysi bilan ta'minlash, ularga zamonaviy kasb-hunarlar, axborot texnologiyalarini o'rgatish, tadbirkorlikka keng jalb etish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2021-yilning o'tgan davrida "Yoshlar daftari" va "Yoshlar dasturlari" asosida 430 ming nafar



yigit-qizning hayotiy muammolarini hal etish uchun 300 milliard so'm mablag' yo'naltirilgan, 92 ming nafardan ziyod yoshning tadbirkorlik loyihalari uchun 2,3 trillion so'm imtiyozli kreditlar, qishloq joylarda yashayotgan 230 mingdan ortiq yoshlarga dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun 61 ming gektar yer maydoni ajratilgani bu boradagi ishlarimiz ko'lami tobora kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Joriy yil 30-iyun kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston yoshlari va talabalar forumida ilgari surilgan yangi tashabbus va g'oyalarni amalga oshirish hamda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini so'zsiz ta'minlash maqsadida 2021-yil 13-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonni imzoladi.

Mazkur farmonda 2021-yil avgust oyida "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning 18 yoshgacha bo'lgan har bir farzandi uchun davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 500 ming so'm miqdorida bir martalik moddiy yordam ko'rsatilishi;

"Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan far-

zandlariga 2021-2022-o'quv yilida birinchi o'quv yili uchun to'lov-kontraktning to'liq summasi davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplab berilishi;

2021-yil 1-sentabrdan boshlab respublikadagi oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt asosida o'qiyotgan talabalar uchun Markaziy bankning asosiy foiz stavkasi miqdorida va o'qish muddatli tugagandan keyin yettinchi oydan boshlab 7 yil muddatda qaytarish shartlari asosida ta'lim kreditlari berilishi;

2021-yil 1-sentabrdan boshlab Toshkent shahrida Yoshlar biznes maktabi, 2022-yildan boshlab barcha hududlarda uning filiallari tashkil etilishi;

2021-yil 1-oktabrdan boshlab har yili yoshlarga mo'ljallangan badiiy asarlar mualliflarini rag'batlantirish maqsadida "Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob" tanlovini tashkil etish va boshqa ustuvor vazifalar qayd etilgan.

Ayni paytda, yuridik soha rivojini hamda Toshkent davlat yuridik universiteti talaba-yoshlarini qo'llab-quvvatlash borasida ham qator o'zgarishlar qilinmoqda. Jumladan, 2021-2022-o'quv yilidan TDYU qoshidagi akademik litseyning barcha fanlar bo'yicha yuqori natijalarga ega bitiruvchilari TDYUga kirish test sinovlarisiz, yakka tartibda suhbat o'tkazish orqali, to'lov-kontrakt asosida

talabalikka qabul qilinishi; "yurisprudensiya" yo'nalishi bo'yicha bakalavriatni imtiyozli tugatgan bitiruvchilarning TDYU magistraturasi-ga test sinovlarisiz, to'lov-kontrakt asosida qabul qilinishi; universitet talabalarini xorijda ta'lim olib, bilim va ko'nikmasini oshirishi uchun xorijiy davlatlarning bir qator nufuzli universitetlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgani bunga yaqqol misoldir.

Talabalarning iqtidorini yuksaltirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida universitetda turli klublar tashkil etilgan. Jumladan, "Talabalar teatr studiyasi", "Vokal va cholg'u ansambli" to'garagi, "Quvnoqlar va zukkorlar", "Dance zone" raqs, "Student's media", "Discovery club", "ITC" va "WISE", "TSUL COURT", "Zukko kitobxon" va "Munozara", "Yuksalish sari", "G'afur G'ulom izdoshlari", "Girls development" kabi klublar ishlayotgan.

Davlatimizda olib borilayotgan islohotlar va ularning talaba-yoshlar hayotidagi o'rni borasida TDYU 2021-yilgi bitiruvchilari o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdi:

Suyunbek Sodiqov, xususiy huquq fakulteti bitiruvchisi: "Joriy yilning aprel oyida Buyuk Britaniyaning oliy ta'lim sohasiga oid muhim masalalarni yorituvchi va universitetlar faoliyatini baholab boruvchi TIMES HIGHER EDUCATION tashkiloti o'zining navbatdagi The Impact Ranking reytingi natijalarini e'lon qildi. Reytingda Toshkent davlat yuridik universiteti 94 ta davlatdan qatnashgan minglab universitetlar orasida 401-o'rinni egallagan universitetda yaqin yillar davomida qilingan katta mehnatning samarasi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Bu reytingda qatnashgan O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida Toshkent davlat yuridik universitetining birinchi o'rinni egallashi bizlarga faxr tuyg'usini berdi. Bu universitet rahbariyati, professor o'qituvchilar, barcha jonkuyar xodimlar, talabalarning mehnati mahsuloti bo'lib, kelajakda yanada ulkan yutuqlarga erishishga kuch-quvvat bag'ishlaydi.

Ta'lim jarayoni bilan bir qatorda universitetimizda turli ijtimoiy tadbirlar o'tkazilib, o'quv va amaliy

to'garaklar doimiy tashkil etiladi. Masalan, "Adliya talabalar klubi" 2017-yilda tashkil etilgan. Klub "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha yuridik kadrlarni tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida talabalariga o'qishdan bo'sh paytlarida adliya organlari va muassasalarida ish o'rganish imkonini yaratib beradi. Men talaba sifatida bu klubda olgan nazariy va amaliy bilimlarim bugungi kunda Adliya vazirligi tizimidagi mehnat faoliyatimda asqotmoqda".

Maftuna Qarshiyeva, jinoiy odil sudlov huquqi fakulteti bitiruvchisi: "Universitetga birinchi kelganida huquqqa oid qarashlarim, fikrlarim deyarli tushunarsiz edi. Tashil jarayonida huquq nima ekanligi va uning ahamiyati, qonunchilik nima, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ularning faoliyati haqida ko'pgina tushunchalar, bilim va ko'nikmaga ega bo'ldim. Dargohda talaba-yoshlarga hamma sharoitlar yaratilgan. Jumladan, universitet kutubxonasi ma'muriyati doimiy tashkillashtirib kelayotgan "Zukko kitobxon" tanlovi biz, talabalarda kitobga bo'lgan sevgini yanada kuchaytirdi. Masalan, men 1-bosqichda "Eng faol kitobxon" faxriy yorlig'i bilan taqdirlanganman va 3-bosqichda badiiy kitoblarni doimiy mutolaa qilganim uchun "Miss kitobxon" sovrindori bo'ldim.

Universitetimizda nafaqat talaba-yoshlar, balki barcha xodimlar uchun sharoitlar yildan yilga yaxshilanib boryapti. Kelajakda universitetimiz yanada ravnaq topib, nafaqat O'zbekistonda, balki butun jahonda eng nufuzli oliy ta'lim dargohi bo'lishiga ishonaman".

Xulosa qilib aytganda, mustahkam ma'naviy immunitetli, o'zining fikrlarini ravon aytadigan, mamlakatimiz ravnaqini oshirishda hal qiluvchi o'rinda ega avlodni tarbiyalash uchun nafaqat ot-ona va oila muhiti, balki jamiyatimizdagi har bir shaxs mas'uldur.

Noila MUSTAFOYEVA,
Toshkent davlat yuridik universitetining xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

YETAKCHILAR FORUMI

Xalqaro bolalar press klubining navbatdagi sessiyasi — "Bolalar tashabbusi — kelajakka yo'l: tashkilotlarning samarali amaliyotlari" mavzusida bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida bolalar bilan ishlashning yangi shakllari, ijtimoiy hayotda ularni rivojlantirish, harakatlarini baholash strategiyalari bo'yicha munozara o'tkazildi. Forumning 1-kunida "Xalqaro bolalar klubi" a'zolari ishtirokida konferensiya, 2-kunida bolalar sog'lomlashtirish milliy markazi rahbari Nadejda Onuriyeva oromgoh tarixi va o'z tajribalarini forumga yig'ilgan 300 nafar ishtirokchi bilan o'rtoqlashdi.

Dasturga asosan, forumning 3-kunida O'zbekiston delegatsiyasi belaruslik

yoshlar yetakchilariga mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlar siyosati, jumladan, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston yoshlari ittifoqi va "Kamalak" bolalar tashkiloti faoliyati, tajribasi to'g'risida maxsus seminar-trening o'tkazdi.

Forumning 4-kunida delegatsiyamiz Minsk shahrida joylashgan Bolalar psixologik markazida bo'ldi. Markaz jamoasi maktablarda o'quvchilarning o'zaro tahqirlash (bullying) holatlarini aniqlash, oldini olish bo'yicha o'zlarining tajribalarini bo'lishdi.

Mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan, umidli, buyuk kelajak vakillarini tarbiyalash, ularni ilm-fanga

yo'naltirish, hayotda o'z o'rinlarini topishi uchun ko'maklashish, buning uchun ularga sog'lom muhit yaratish kabi dolzarb masalalar forumning bosh g'oyasi etib belgilangan edi va kelgusida bu borada amalga oshiriladigan tizimli ishlar har bir davlat kelajagini hal etuvchi muhim vosita sanaladi.

Bolalar tashkilotlari vakillari orasida samarali hamkorlik uchun bo'lib o'tgan forum yangi tajriba va yorqin loyihalarimizga xizmat qiladi, — deydi delegatsiyamiz vakili — respublika "Kamalak" bolalar tashkiloti raisi Indira Xoldarova.

Komila HAMROYEVA



СТАВКА - НА ИТ-КАДРЫ И ТАЛАНТЛИВУЮ МОЛОДЕЖЬ

Под председательством Президента Шавката Мирзиёева состоялось видеоселекторное совещание по вопросам подготовки квалифицированных кадров в области информационных технологий и системной работы с одаренной молодежью.

В совещании через видеоконференцсвязь участвовал также министр по делам правительства и будущего ОАЭ Мухаммад бин Абдулла аль-Гергави.

ФАКТОР ПРОГРЕССА

Важный драйвер развития страны

Так глава государства назвал цифровую экономику и напомнил, что именно с этой целью начата реализация стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030». В ее рамках воплощено 89 проектов в регионах и более 200 – в отрядах.

С начала года число резидентов IT-Park увеличилось на 35 процентов (482), они создали более шести тысяч новых рабочих мест. Экспорт программных продуктов за первые восемь месяцев этого года составил 26 миллионов долларов. В ближайшие три года в различных сферах экономики планируется реализовать еще 300 проектов.

Для обеспечения стартапов и в целом IT-сферы высококвалифицированными специалистами в сотрудничестве с ОАЭ реализуется проект «Один миллион программистов». К настоящему времени бесплатное обучение прошли 567 тысяч мальчиков и девочек. Сертификаты получили 127 тысяч человек.

Президент отметил, что ни один учащийся из двух тысяч школ не участвовал в программе «Один миллион программистов». Глава государства поручил дове-

сти проект до каждой школы, при необходимости – дополнительно оснастить учебные заведения компьютерами, активно привлекать детей. Кроме того, такие курсы должны быть организованы на базе центров молодежи и моноцентров «Ишга мархамат».

Руководитель страны подчеркнул, что «ни одна школа не должна остаться в стороне от проекта «Один миллион программистов». В течение двух месяцев планируется доставить в такие школы минимум по десять компьютеров. Для этого из бюджета намечено выделить 100 миллиардов сумов.

Сегодня в стране действуют 100 школ, специализирующиеся на информационных технологиях. В ближайшие два года планируется увеличить их количество до 205 и обучить более 30 тысяч учащихся. В связи с этим ответственным лицам дано указание заблаговременно подготовить педагогов, технику и учебные программы.

IT-техникумы и не только

Еще одно нововведение – с 1 октября этого года во всех регионах откроется 14 IT-техникумов. В них около восьми тысяч юношей и девушек будут обучаться



по таким направлениям, как программный инжиниринг, информационная безопасность и телекоммуникации.

Для внедрения новой системы молодых кадров в IT-сфере Алокабанк создаст венчурный фонд с уставным капиталом в 80 миллиардов сумов и Центр развития IT-знаний. В течение следующих пяти лет центр профессионально обучит 100 тысяч молодых людей разработке программного обеспечения, мобильных приложений и сетевому администрированию.

Кроме того, в настоящее время действует 151 центр обучения цифровым технологиям, где в этом году обучились более 27 тысяч слушателей. До ноября планируется создать еще 54 таких центра.

Цель – повысить качество обучения

На совещании обсуждены и вопросы повышения качества учебно-воспитательного процесса в Президентских, специализированных и творческих школах.



Сегодня в четырех Президентских школах учатся 576, в трех специализированных и девяти творческих школах – 1,5 тысячи ребят.

Глава государства подчеркнул, что в этом процессе большое значение должно придаваться национальным ценностям и патриотическому воспитанию. Отмечена важность широкого приобщения учащихся к истории, культуре и искусству нашей страны, организации патриотических уроков с участием военнослужащих.

Поставлены задачи ориентировать учащихся специализированных школ на профессии в области информационных технологий, организовать в творческих школах кружки по веб-дизайну, компьютерной графике, изобразительному и цифровому искусству, созданию аудиовизуальных произведений, переводу, журналистике и актерскому мастерству.

Подчеркнута необходимость повышения квалификации учителей на основе передового международного опыта и стандартов.

С этой целью планируется создать Центр педагогических навыков и международной оценки в Ташкенте и его филиал в Андижане. Центр будет привлекать специалистов из-за рубежа, повышать квалификацию учителей по предметам и иностранным языкам, выдавать сертификаты международного образца.

В целом намечено создать новую систему внедрения инвестиционных и инновационных направлений в деятельность Президентских школ. Министерство инвестиций и внешней торговли и Министерство иностранных дел окажут помощь в привлечении из-за рубежа учебных программ, литературы и оборудования, квалифицированных преподавателей и грантов. Также будут реализованы программы обмена учителями и студентами с зарубежными школами.

По обсужденным на совещании вопросам заслушаны отчеты ответственных лиц.

Подготовила
Алина ЯГОДИНА

УРОК НЕЗАВИСИМОСТИ

Самое дорогое слово

В общеобразовательной школе №24 Галляраальского района Джизакской области состоялось мероприятие, посвященное 30-летию независимости Республики Узбекистан.

Цель – донести до учащихся смысл и значение перемен, произошедших в стране за десятилетия суверенитета.

Актовый зал превратился в фотогалерею, где под чистым небом колосились пшеничные поля, белым морем простирался хлопок, струились воды Амударьи, улыбались счастливые люди... Особое место занимала государственная символика. Приковывали внимание плакаты, отражающие уверенные шаги свободной страны к новым горизонтам.

Ребята на подъеме исполнили Государственный гимн Республики Узбекистан, и начался разговор о независимости: какое значение имеет суверенитет в жизни республики? Говорили о свободном выборе пути развития, о возможности самостоятельно решать вопросы внутренней и внешней политики. Суверенитет, самостоятельность – ряд синонимов вел к самому дорогому слову для каждого человека. И вот уже учащиеся рассуждают, что такое Родина, высказывают мнение, что в нашей стране живут добросердечные, трудолюбивые люди.

Ведущий обращается к залу и тут же получает ответы о структуре Конституции, дате принятия Основного Закона, внесении в него поправок и содержании статей. О суверенной демократической республике и ее символах говорят стихами и песнями. А каждая



страна – это ее народ, граждане, хорошо знающие свои права и обязанности. Подробнее остановившись на статье 41, в которой закреплено право каждого на образование, мальчики и девочки вспоминают рассказы бабушек и дедушек об их предках. Возможность учиться в далекие времена была не у каждого, а сейчас созданы все условия для овладения знаниями. Уделяется внимание гармоничному развитию подрастающего поколения. Открываются школы для одаренных детей, можно посещать разные кружки по интересам. Перед молодежью Узбекистана – широкий и светлый путь. Представителей подрастающего поколения называют строителями будущего. Приводятся примеры, каких высот достигают молодые узбекистанцы

в науке, искусстве, спорте, бизнесе. Для образования в независимой стране нет границ.

Интерактивная беседа, направляемая ведущим, коснулась и других статей Конституции – о медицинском обслуживании, защите Родины, бережном отношении к окружающей среде и культурному наследию.

Игра «Цепочка» (замена определенного понятия по теме одним словом), кроссворды и чайворды, выразительное чтение стихов, исполнение узбекского народного танца с дойрой позволили в творческой атмосфере закрепить полученные знания.

После подведения итогов прозвучало стихотворение, заключительную строку которого прокандидировал весь зал:

**«Независимость» – это слово
Прекраснее слова любого!
Цвети, родной Узбекистан,
Ты независим и свободен.
«Гулла, яшна, Узбекистон!» –
Так говорят в народе.**

Обращение к учащимся нашло отклик в сердце каждого: «Все зависит от вас. Вы должны хорошо учиться, любить свою Родину. Будущее страны в ваших руках!»

Также в рамках внеклассного мероприятия организовали выставку буклетов, альбомов, художественной литературы, наглядных пособий на тему «Мой родной край».

Шоира АЛИШБОЕВА

По случаю празднования 30-летия независимости Узбекистана Министерство дошкольного образования совместно с корейской компанией Edulink запускает мобильную образовательную программу S board.



ИКТ В ОБРАЗОВАНИИ

ДЕТСКИЙ САД В СМАРТФОНЕ

На первом этапе в пилотном режиме проект реализуется в Бектемирском районе города Ташкента. Разработанное приложение открывает уникальные возможности для дошкольных образовательных организаций, воспитателей, родителей и дошколят. Мобильное приложение предназначено для повышения качества обучения, облегчения взаимодействия ДОО и родителей, поэтапного перехода от бумажных видов отчетности к цифровым.

На платформе S board будут размещать интерактивные видеоролики для обучения основам математики, узбекскому, английскому и другим языкам. Особое внимание в рамках программного обеспечения уделяется повышению квалификации педагогического состава ДОО.

Все этапы разработки мобильного приложения осуществлялись в соответствии с Государственной учебной программой «Илк кадам», а также Государственными стандартами дошкольного образования и воспитания и Государственными требованиями к развитию детей раннего и дошкольного возраста.

Приложение S board доступно для бесплатной загрузки в онлайн-магазинах GooglePlay и AppStore.

Ольга ЛИДИНА

КАК ПОДРОСТКУ НЕ СТАТЬ

ЖЕРТВОЙ преступлений

ЗНАЙ СВОИ ПРАВА!

Нередко в социальных сетях и выпусках новостей мы видим кадры преступлений с участием подростков. В одних случаях несовершеннолетние – инициаторы противоправных действий, но чаще всего, к сожалению, жертвы.

Именно поэтому правительство в августе 2021 года приняло постановление «О мерах по дальнейшему совершенствованию оказания социальной и правовой помощи несовершеннолетним». Утверждено Положение о центрах социальной и правовой помощи несовершеннолетним. Кроме того, подписан Указ «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы обеспечения гарантий прав ребенка», а также разработан проект нового закона.

Что нам дадут новые законодательные нормы? Как обстоят дела с правонарушениями и преступностью в условиях пандемии? На эти и другие вопросы отвечает и.о. профессора кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук Саломат НИЁЗОВА.

шественнолетних преобразована в Национальную комиссию по вопросам детей.

Также разработан проект нового закона «Об основах деятельности по профилактике правонарушений». Он обобщит два нормативно-правовых акта – «О профилактике правонарушений» и «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних». Особенность этого закона в том, что отдельные термины, которые закреплены в ранее принятых документах, конкретизированы: «семья, находящаяся в социальном опасном положении», «безнадзорность», «беспризорность», «несовершеннолетний». Определены виды профилактики и их механизмы, закреплена деятельность субъектов. Если говорить о международном опыте, подобные законы эффективно действуют в Беларуси, Казахстане, Кыргызстане.

– Саломат Сапаровна, законы призваны защищать граждан. Насколько эффективен правовой механизм в отношении несовершеннолетних?

– Сегодня для предотвращения и профилактики правонарушений, устранения и нейтрализации их причин проводится планомерная работа.

Так, центры социальной и правовой помощи несовершеннолетним, которые создаются по постановлению правительства, выявляют беспризорных детей, тщательно изучают их поведение, семейное окружение и факторы, повлиявшие на уход ребят из дома. Главное – обеспечить их воспитание в семье или размещение в специализированных учреждениях, оказать всестороннюю поддержку в обучении и трудоустройстве.

В августе принят еще один важный документ – Указ «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы обеспечения гарантий прав ребенка». Он направлен в том числе на раннее предупреждение безнадзорности и совершения правонарушений среди несовершеннолетних, обеспечение исполнения результатов обсуждений, проведенных с широкой общественностью по вопросам государственной поддержки детей с инвалидностью и детей, оставшихся без попечения родителей. Согласно указу учрежден Институт Уполномоченного Олий Мажлиса по правам ребенка, то есть Детский омбудсман. Кроме того, Республиканская межведомственная комиссия по делам несовер-

– Какую долю всех правонарушений составляют совершенные подростками?

– Этот показатель достаточно высокий. Правонарушения подростков – составная часть всех совершаемых преступлений (воровство, мошенничество, ограбления и так далее). Сейчас, в условиях пандемии, тоже происходят подобные инциденты.

– И это несмотря на то, что из-за коронавируса люди чаще всего находятся дома, работают удаленно?

– К сожалению, именно во время пандемии подростки стали активнее совершать правонарушения. Ситуации встречаются разные. Юноши и девушки не только употребляют, но и продают наркотические, психотропные вещества. Игры-тотализаторы, онлайн-казино также становятся причиной неправомерных действий. В такие дела



Конечно, и у этой ситуации плачевный исход: дети остаются без надзора и контроля, могут оказаться под влиянием людей с девиантным поведением. Становятся жертвами преступлений и входят в криминальный мир.

– Что делать ребятам, чтобы не стать жертвами и преступниками одновременно? Ведь огромное влияние на них оказывает семья, тем более если она неблагополучная.

– Ученые подсчитали, что причинами правонарушений и преступности среди несовершеннолетних могут служить 320 (!) факторов. На что чаще всего указывают исследователи? Подростки не проводят досуг содержательно, фактически они ничем не заняты. Есть те, кто воспитывается в неблагополучных семьях, где присутствуют алкоголь, лобби, ежедневные скандалы. А ребенку хочется хорошей жизни. Что он делает?

Ищет понимания на стороне, одобрения в глазах чужих людей. Становится уязвимым, что создает благодатную почву для превращения его в жертву преступления или даже в правонарушителя.

Еще одна причина – просмотр фильмов со сценами насилия и жестокости. Несовершеннолетние стремятся подражать киногероям и порой именно поэтому совершают преступления. Нельзя забывать и о влиянии интернета. Ребята часами сидят в соцсетях, попадают на разные сайты, где продвигаются разрушительные идеи. Все это создает благодатную почву для возможного нарушения закона.

При этом обвиняет МВД, прокуратуру и инспекторы профилактики в том, что они якобы не работают, в корне неправильно. Кто в первую очередь ответственен за воспитание подростков? Семья. А когда несовершеннолетние уже выходят из-под контроля, становятся безнадзорными и совершают правонарушения, этим пользуются взрослые преступники.

Можно привести много примеров. Скажем, такой. Гражданин И. вышел из мест лишения свободы. С ним не проведена работа по социальной адаптации, индивидуальная профилактика. Вернувшись в родную махаллу, мужчина стал собирать вокруг себя подростков и, приукрашивая действительность, рассказывать о своих «подвигах», криминальной «романтике». Так сформировалась небольшая группировка, которая сначала совершала мелкие преступления, а затем перешла к более серьезным.


Чтобы такие инциденты не повторялись, изучаются их причины, девиантное поведение правонарушителей. Принимаются меры по профилактике, которая делится на общую, специальную и индивидуальную.

Общая профилактическая работа проводится в школах, махаллах, в местах, где проживает большое количество правонарушителей. Это также выступления в СМИ, публикация тематических статей, разработка государственных программ. Словом, правовая пропаганда среди населения.

Специальная профилактика – мероприятия, направленные на предотвращение отдельных видов правонарушений, устранение их причин, выявление соответствующих категорий лиц. Чаще всего такая необходимость возникает, когда возрастает количество отдельных видов противоправных действий.

Например, в Мирабадском и Яшнабадском районах столицы вместе с другими преподавателями ТГЮУ мы провели мероприятия по повышению правовой грамотности, жероганизованной молодежи. Говорили о том, какие возможности созданы для работы и учебы, как стать предпринимателем, получить кредит, заключить трудовой договор, на что обращать внимание, чтобы защитить свои права.

Индивидуальная профилактика предусматривает беседы, информирование о причинах соверше-



В органах внутренних дел разрабатываются прогнозы: исходя из анализа, предполагается, какие преступления будут совершаться чаще, решается, что необходимо делать для их предотвращения. Преподаватели нашего университета активно участвуют не только в обсуждении, но и в разработке законопроектов, специальных программ. Ведутся исследования, посвященные криминологическим аспектам подростковых преступлений. Кстати, в особой части Уголовного кодекса предусмотрена ответственность за их совершение.

– На мероприятиях по профилактике можно услышать от молодежи: «Не знал, что мои действия – правонарушение». Действительно ли это так?

– Да. Ученые проводили социологические исследования, опросы и выяснили, что большая часть правонарушителей узнает, что в их действиях есть состав преступления, только после вызова в органы внутренних дел. Думаю, говорить, что совершенно это по незнанию, неведение, – неправильно. Потому что сейчас в соцсетях и СМИ много информации о том, какие негативные действия попадают под категорию «преступление», а какие – под «правонарушение». Исключение – правонарушитель еще совсем ребенок.

Например, школьник продает на улице ханум, пирожки, самсу, школу не посещает. Фактически это – принуждение к труду. Мы говорим: «Надо ходить на учебу». А мальчик после непродолжительной беседы признается, что занимается еще и мелким воровством, чтобы помогать семье. И здесь очень важно объяснить ребенку, что это правонарушение, за которое он несет ответственность. Это должны объяснять в семье, махалле, люди, которым дети доверяют.

Сейчас в некоторых сходах граждан такая работа практически не ведется. Мальчишки и девочки предоставлены сами себе, допоздна не появляются дома. Или не интересуется не то что махалла – сами родители. Взрослые заняты собой,

работой, деньгами. Забывают следить за детьми. А это чревато.

Не зря у нашего народа есть пословица «Бир болага етти кушни ота-она» («Семь соседей воспитывают одного ребенка»). Поэтому никто не должен быть безразличен к подросткам. Активное участие в жизни ребенка поможет избежать многих проблем, в том числе и плохих компаний.

– Студентам ТГЮУ эта тема тоже не безразлична...

– Сейчас много мероприятий, направленных на повышение правовой грамотности. В них активно участвуют студенты нашего университета. Выражают свою гражданскую позицию, выступают с докладами.

Специалисты ТГЮУ создали локальную методику профилактики правонарушений и борьбы с преступностью в Юнусабадском районе столицы. В общеобразовательных школах, расположенных на территориях махаллей, мы реализовали проект Street Law на тему «Хотите бороться за свои права? Сначала узнайте их!». Организованы выездные приемы юридической клиники ТГЮУ.

Кроме того, университет активно работает по системе «махаллабай». Это и повышение правосознания молодежи, и привлечение подрастающего поколения к спорту, чтению, и работа с дошкольниками.


– Начался учебный год, а это значит, что вновь становится актуальной тема буллинга в образовательных учреждениях...

– Буллинг – агрессия одних детей против других. Не всегда выражается физически, это может быть словесная травля, распространение слухов, бойкот. К сожалению, такие ситуации способны привести к психологической травме, суициду. Поэтому каждый должен знать: оскорбление, притеснение, посягательство на честь и достоинство недопустимы.

Сейчас юноши и девушки осознают, что такие действия могут рассматриваться как правонарушение или преступление. И в этом важную роль играют профилактические мероприятия.

Беседовала Наргиза ИСМАНОВА, главный специалист по связям с общественностью и СМИ ТГЮУ

Я студент 4-го курса филиала Российского государственного университета нефти и газа имени Губкина в Ташкенте. Попал в дружную и легкую на подъем группу. Жизнь в альма-матер насыщенная, учимся усердно, практически 24/7, особенно во время сессии.



ЦЕНИТЬ КАЖДУЮ СЕКУНДУ

Несмотря на это, активно участвуем в вузовских мероприятиях, а их немало. Помню, абитуриентом мне посчастливилось побывать на празднике, посвященном Новому году: увлекла невероятная атмосфера того вечера. В ходе ивента прошли разные конкурсы, каждый из которых не уступал другому. Было здорово! Подобные мероприятия, их качественная организация стали одной из основных причин поступления именно в этот вуз.

Сейчас я лидер Союза молодежи в своей группе и стараюсь принимать активное участие в жизни университета вместе с друзьями.

Весной прошла ежегодная научная конференция «Губкинские чтения» среди студентов. Я тоже попытал счастья с докладом «Контроль утилизации попутного нефтяного газа в месторождениях Республики Узбекистан» и занял первое место в секции «Представление работы на английском языке».

Когда мне дали слово, слышал, как сильно бьется сердце. Нелегко презентовать материал перед комиссией, но благодаря поддержке близких взял себя в руки, перестал волноваться и выступил достойно. Во время церемонии объявления победителей почувствовал вкус победы. Это был общий успех: родителей, наставников, друзей, всех, кто верил в меня.

От старта в научно-исследовательской деятельности подчас зависит дальнейшее к ней отношение. И то, какие условия созданы в этой сфере, имеет огромное значение. Именно поэтому Указ «О дальнейшей поддержке одаренной молодежи, обучающейся и занимающейся научно-исследовательской деятельностью в высших образовательных учреждениях» прочитал на одном дыхании. Сколько стимулов, сколько возможностей!

Отлично учиться и совмещать учебу с наукой, продолжать исследования по окончании вуза, поступать в магистратуру, докторантуру! Теперь в каждом образовательном учреждении будет Государственная стипендия Президента Республики Узбекистан. Одаренные студенты могут претендовать на ряд государственных именных стипендий. Безусловно, каждый будет

стремиться называться лучшим из лучших. Раскрытие способностей, необходимая поддержка со стороны государства в этом процессе вдохновит целеустремленную молодежь на покoreние новых рубежей в учебе, науке, искусстве, спорте. А от подготовленности специалиста, высокой квалификации зависит его роль в жизни общества. На нас, молодых, надеется страна, и мы с честью должны занять ряды строителей Нового Узбекистана.

Считаю, что во время учебы в вузе нужно пользоваться всеми предоставляемыми возможностями. Благо сегодня их так много. Наши студенты регулярно участвуют в международных интернет-олимпиадах, интеллектуальных играх «Что? Где? Когда?», турнирах по шахматам, собраниях научных сообществ, соревнованиях по всем видам спорта. К слову, на первом курсе команда нашей группы заняла первое место в чемпионате по футболу, который проходил в рамках университета. Конечно, победа не самое главное. Главное – достойное участие, но победа вдохновляет на новые достижения, диктует новые цели.

В филиале уделяют особое внимание работе с юношами и девушками. На форум молодежи, который прошел в конце июня в Ботаническом саду Ташкента, были делегированы самые активные студенты. Губкинцы участвовали во всех проектах, получили памятные призы. Я занял второе место в конкурсе Ideathon, организованном IT-Park.

На новый учебный год у всех большие планы, но о них не стоит говорить раньше времени. Главное, есть мотивация. К совершенствованию, самореализации призывает глава государства: «Цените знания, стремитесь к знаниям! Не тратьте напрасно ни секунды! Помните, молодость – самая бесценная пора жизни, а наука и знания – это уникальное богатство, которое в воде не тонет, в огне не горит, и никто не в силах его отнять!»

Шохрух ШЕРКУЛОВ



ТВОРЧЕСТВО

Нарисуй Новый Узбекистан!

В школе №209 Мирзо-Улугбекского района столицы состоялся конкурс, посвященный 30-летию независимости республики

В творческое состязание «Мой родной Узбекистан» включились учащиеся начиная с 3-го класса. Самые юные конкурсанты запечатали свои сюжеты, выполненные разноцветными мелками, на асфальте. Среднее звено воплощало задумки на листах формата А3, а старшеклассники выпустили стенгазеты.

Инициаторы художественных «батальи» библиотекарша Светлана Кан и учитель черчения и рисования Луиза Ким рассказывают: — Никого не принуждали. Начать учебный год, отразив в творческих работах гражданскую позицию, — добровольный

выбор ребят, любящих рисовать. Чтобы они раскрылись в своих дарованиях (у каждого возраста разный уровень восприятия, техники), задумали такую трехступенчатую систему. Дали полную свободу в выборе «инструментов»: краски, цветные и простые карандаши, гуашь. Оцениваются постановка, колористическая гамма, отражение темы.

Мальчишки и девочки увлеченно творят. Интересно наблюдать за выражением их лиц: кто-то улыбаётся воспоминаниям о праздничном салюте, когда всей семьей следили за взлетающими

в небо разноцветными звездами, кто-то не может забыть священную птицу Хумо из нового парка, кто-то повторяет про себя заветы Амира Темура. Равнодушных в аудитории нет.

Комментарии к работам лишь подтверждали желание детей выразить любовь к родной стране в творческой форме. Развешивающиеся флаги, памятники древнего зодчества и современной архитектуры, величественные горы, цветущие деревья, казан с сумалаком...



Авторы говорили о том, что любовь к Родине — это стремление учиться и работать на благо страны, беречь ее богатства, знать ее историю, гордиться ее достижениями и прекрасным душевным

народом. Народом-тружеником, народом-созидателем.

Старшеклассники отразили в стенгазетах путь страны к Новому Узбекистану, подобрали интересные факты, красивые стихотворные строки, выразительные иллюстрации, оформили материалы «говорящими» рисунками.

А самые юные художники поразили решительностью и умением работать в команде. Они так заразительно рисовали, не замечая перепачканной одежды и цветных коленок, что братик одной из участниц попросил кусочек мела и стал соиздавать свою картину.

Заволаговались члены жюри, имеющие специальное художественное образование: «Как оценивать будем? Все здорово потрудились! Работы содержательные, яркие!».

А все потому, что любовь к Родине помогла высказать то, что переполняет сердце. Ребята были очень убедительны. Конкурс проявил сыновние и дочерние чувства к родному краю. Выразить их удалось!

Ольга ВОЛОДИНА



Наследие — бесценное!

Что: Неделя культурного наследия
Где: города Ташкент, Хива и Нукус
Когда: 13–20 сентября

В рамках Недели пройдет ряд мероприятий, в частности, V Конгресс всемирного общества по изучению, сохранению и популяризации культурного наследия Узбекистана. В нем примут участие свыше 350 ученых и экспертов из 46 стран: ведущие востоковеды, специалисты по рукописям и миниатюрам и многие другие.

Запланировано проведение свыше десяти различных выставок и презентация 50 уникальных книг-альбомов из серии «Культурное наследие Узбекистана в собраниях мира». Комплекты литературы впоследствии передадут музеям, галереям, учебным заведениям, посольствам



и консультациям зарубежных стран, расположенным в республике.

Кроме того, в Нукусе будут организованы международные научно-теоретические конференции «Археология и туризм: определение потенциала и управление наследием» и «Роль искусства бахши в цивилизации мировой культуры», а также Международный фестиваль искусства бахши.

Божим, пльвем, медитируем

Что: фестиваль Sky Camp Bo'stonliq
Где: Бостанлыкский район Ташкентской области
Когда: 17–19 сентября

Sky Camp Bo'stonliq — это фестиваль спорта, музыки и современного искусства, а также уникальное событие, входящее в серию забегов Samarkand Half Marathon. Местом проведения станут горный курорт Amirsoy и зона отдыха Chorvoq Oqotgohi.

Проект объединит тех, кто любит горы, музыку, активный и здоровый образ жизни. Насыщенная программа включает любительскую шоссеиную велогонку (на 11 км), гонку по плаванию (на 1 км), забеги на 2 и 4 км, а также сессию йоги и медитацию.



афишка. UZ

Успеть за 48 часов

Что: фестиваль современного искусства 48hours
Где: весь Ташкент
Когда: 24–26 сентября

Фестиваль «48 часов», который проводится при поддержке Гёте-института в Ташкенте, — новый формат в культурной жизни столицы. Проект не будет иметь основной



площадки: в нем задействованы галереи, выставочные залы,

а также театры, мастерские художников, подземные переходы, дворы домов (всего 14 локаций). Цель — показать искусство в тех местах, где его обычно не ожидаешь увидеть.

В программе — презентация индивидуальных, групповых и кураторских проектов, концерты, лекции, мастер-классы. Демонстрации скульптур, картин, инсталляций будут сопровождаться акциями — звуковыми, танцевальными, интерактивными.

Проведение фестиваля в разных локациях в формате непрерывного события на протяжении 48 часов — как некий тур по местам встречи зрителя с искусством — даст возможность не только познакомиться с творчеством художников, но и по-новому взглянуть на привычные места.

Что: выставка стрит-арта, посвященная женщинам Узбекистана
Где: несколько локаций в Ташкенте
Когда: бессрочно

Необычная выставка организована в рамках проекта «Экспонат» совместно с индийским сообществом Fearless Collective.

На улицах Ташкента можно увидеть произведения в жанре стрит-арт, выполненные отечественными и зарубежными художниками.

Концепция экспозиции посвящена женщинам Узбекистана. Участницы призывают представителей прекрасной половины человечества следовать внутреннему голосу и верить в себя несмотря ни на что.



Следуй внутреннему голосу



MUNOSABAT

KIMLAR RASMIY STATISTIKADAN FOYDALANISHI MUMKIN?

2021-yil 11-avgust kuni "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonun imzolandi.

Rasmiy statistika mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish va baholash hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, jamoatchilikni xabardor qilish, rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun e'lon qilinadi.

Rasmiy statistika "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonunga muvofiq davlat statistika organlari va rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan tayyorlanadigan hamda tarqatiladigan statistika ma'lumotlaridir. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sohada vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Har qanday jismoniy va yuridik shaxslar rasmiy statistikadan foydalanishi mumkin. Ular e'lon qilingan statistika ma'lumotlaridan erkin foydalanish, e'lon qilinmagan ochiq statistika ma'lumotlarini olish

maqsadida rasmiy statistikaning tayyorlovchilarga so'rov bilan yoki ularni e'lon qilish to'g'risidagi taklif bilan murojaat qilish kabi huquqlarga ega.

Rasmiy statistika mavjud prinsiplarga to'la muvofiq holda, shuningdek, ayrim statistika ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash hamda barchaga teng foydalanish imkoniyatini berish orqali e'lon qilinadi. Ma'lumotlar maxsus dasturda va rasmiy statistikaning e'lon qilish jadvalida nazarda tutilgan mudatlarda e'lon qilishi shart.

Tarkibida davlat sirlari va qonun bilan qo'riqlanadigan

boshqa sir bo'lgan rasmiy statistika ma'lumotlari e'lon qilinmaydi hamda qonunda belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Jamoatchilik rasmiy statistikaning e'lon qilish muddatining har qanday o'zgarishi to'g'risida e'lon qilishning rejalashtirilgan sanasiga qadar xabardor qilinadi.

Shuningdek, rasmiy statistikaning tayyorlovchilar qo'shimcha ravishda ishlov berilgan statistika ma'lumotlarini, bosma nashrlarni va boshqa materiallarni rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning so'roviga ko'ra pulli asosda taqdim etish huquqiga ega.

Gulzoda BEGJANOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxiotosh tumani prokurorining ish o'rganuvchi yordamchisi



Afsonadan ANDOZA OLGAN Gulayim

Qoraqalpoq xalqining mashhur "Qirq qiz" dostoni haqida eshitgandirsiz. Uning bosh qahramoni Gulayim atrofiga o'zi kabi mard, jasur qirq nafar qizni jamlab, yurtini yovdan himoya qilgan.

Bugun qoraqalpoq elida ko'zlari porlab turgan Gulayim Erjanbayevaning g'ayrati, shijoatini ko'rib, afsonadagi Gulayim qayta tug'ilgandir, degan xayolga boradi kishi.

Faoliyatini 2015-yilda Chimboy tumani "Kamalak" sardori vazifasidan boshlagan Gulayim ko'pgina muvaffaqiyatlarga erishdi. 2015-2017-yillarda "Kamalak yulduzlari" bolalar ijodiyoti festivalining Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida xoreografiya yo'nalishi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi.

2018-yilda "Eng namunali tuman Sardorlar kengashi" tanlovining respublika bosqichida "Aydin keleshek" jamoasi bilan faxrli 1-o'rinni egalladi. Yil yakunida Yoshlar ittifoqi samarali faoliyati sarhisobi bo'lgan "Xoshamet-2018" taqdirlash marosimida "Yilning eng faol sardorlar kengashi" nominatsiyasi bo'yicha g'oliblik haqli ravishda aynan Gulayimning jamoasiga nasib etdi.

Eng yaxshi lider Gulayim 2019-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi "Ittifoq" sardorligiga munosib ko'ridi.


Yoshlar ishlari agentligi qoshida tashkil etilgan "Yosh maslahatchilar kengashi"dan Buxoro viloyatiga koordinator qilib tayinlangan Gulayim joriy yilda Chimboy tumanidagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabini imtiyozli ravishda "Oltin

medal" bilan tamomladi. Ko'p yillik mehnat va faollikning samarasi o'laroq Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-noyabrda 914-sonli qarori bilan muddatidan oldin imtihonlarsiz davlat granti asosida Nukus davlat pedagogika instituti xorijiy tillar fakultetiga talabalikka qabul qilindi.

Iste'dod mevali daraxtga o'xshaydi: qarov bo'lmasa, qurib qoladi, — deydi afsonadan andoza olgan Gulayim Erjanbayeva muvaffaqiyati haqida gapirarkan. — Faoliyatim ibtidosida tashabbuslarimning e'tirof etilishi yanada ko'p harakat qilishimga turtki bo'ldi. Aynan afsonadagi Gulayimga aylanishimga undadi. E'tibor va e'tirof uchun ustozlarim Sarvinaz Jolimbetova hamda Ikram Abdikalikovlardan cheksiz minnatdorman.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev "Bizning havas qilsa arziydigan ajdodlarimiz, tariximiz bor va men ishonaman, havas qilsa arziydigan kelajagimiz ham, albatta, bo'ladi", deb bejiz aytmaganlar. Gulayim kabi shijoatli, ishtiyoqli baland yoshlar kun kelib buyuk ota-bobalarimiz Beruniy, Xorazmiy, Forobiyarga, mard, jasur, oqila momolarimiz To'maris, Nodirabegim, Uvaysiyol kabi tarixda shonli iz qoldirishadi.

Komila HAMROYEVA



FIKR

ADABIYOTGA BEFAROQ YOSHILAR

Yaqinda ayrim tengdoshlarimga shunday savol berib ko'rdim: "Adabiyot deganda niman tushunasiz?". "Adabiyot bitta fan-da!.."; "She'r yod olishni tushumanan!.."; "Kitob o'qish fani"...

Maktabdan tashqarida, yoshi kattaroq odamlarga ham shu savolni berib ko'rdim. Hammasi balandparvoz gaplar bilan yoki keraksiz savoldek istehzo bilan javob berdi. Xullas, savolimga o'zim kutgan javobni ololmadim. Xo'sh, aslida adabiyot nima o'zi, u bizga nima uchun kerak?

Nazarimda yoshlar ko'p vaqtini adabiyotga emas telefonga sarflamoqda. Bugun yoshlar uchun eng aziz va qadri narsa nima ekanini bir zumda topib ol-sangiz kerak. Ha, o'sha narsa — mobil telefon. Oddiy yozishdan tortib o'qishgacha, fikmi aniq va tushunarli qilib gapirib bera olish yoki qog'ozga tushira olish, odob, ibo-hayo, uyat, madaniyat, dunyoqarash — bularning hammasi adabiyotdir. Adabiyotdan uzoqlashar ekanimiz inson hayotiga kerak bo'ladigan

yuzyab fazilatlar yo'qlikka yuz tutadi. Adabiyotimiz vakillaridan biri Xosiyat Rustamova shunday degan: "Adabiyotning ham qarg'ishi bor".

Shoira bu gapni naqadar kuyunchaklik bilan aytganini his etyapman. Barcha yoshlar-u keksalar adabiyotni sevsalar, shunda adabiyot ham ularni asraydi. Bir bekatda kitob o'qib o'tirgan, bir yonda esa "tik-tok" dagi sahifasi uchun bachkana qilig'ini video-ga olayotgan bolaga ko'zim tushdi. Shulardan qaysi biri dunyoni kengroq anglay oladi? Kitob o'qiyotgan bolami yoki "tik-tok"chi "yulduz"mi? "Tik-tok"chi bolalarning ayrimlari bilan suhbatlashdim. Nima emish, kitob o'qish bilan qorin to'yasmish. Agar bu bolaning videosi ko'pchilikka yoqsa, puli ko'payarmish. Buni qarangi, u

o'z ongini zaharlagani yetmagan, boshqalarni ham zaharlash niyatida!

Adabiyotning qadr-qimmatini, uning nima ekanini yoshlarimizga balandparvoz gaplar bilan emas, adabiyotning o'zi orqali tushuntirishimiz zarur. Kitoblar sandiqda eskitirib qolmasligi, adabiyot esa yo'q bo'lib ketmasligi, albatta, har birimizga bog'liq. Buyuk mutafakkirlarimiz — Navoiy, Forobiy, Avloniy merosini "tik-tok" dagi qahramonlarga almashish to'g'ri emas. U yerda yoshlarimiz bilimiga emas, bachkana kiyinishga, tuturiqsiz qilig' qilishga, maqtancholikka, behayolikka o'rganyapti. Adabiyot tushunchasi umuman yo'q u yerda. Dunyoni yangidan yaratish bizi qo'limizda. Qimmatli vaqtimizni ammoqona ishlardan himoyalash vaqti kelgan, deb o'ylayman.

Abdulloh ABDUMINOVA,
Toshkent shahridagi 102-maktabning o'quvchisi

MAJBURIYAT

Bundan o'n yillar ilgari bir davrada o'tirganimda, yaqinda Rossiyadan kelgan talaba Lenin jasadi qo'yilgan Mavzalega kirgani va binoning qurilish tarixi haqida gapirib, hamma ni og'ziga qaratib turgan dam, o'tirganlar ichidan bir amaki so'zamol talabaning gapini bo'lib, uning na Mavzale, na Lenin to'g'risida hech vaqo bilmasligi, shunchaki bizga kimlardandir uzun-yuluq eshitganlarini qo'shib-chatib gapirib berayotganini isbotlab, ovozi o'chirib qo'ygandi. Ha, u yana shunday degandi talabaga:

– Sen shahrisabzlikсан, ayt-chi, shahringni Spitamen yashagan davrda nima deb atashgan?

Shunda nafaqat o'qimishli talaba, biz churvaqalar ham til tishlab qolganmiz.

Bu voqeani nega keltirdim? Mana, oradan o'n yil o'tibdiki, ahvol o'sha-o'sha. Hatto o'zini o'qimishli sanaydigan teng-qurlarim ham o'zi tug'ilgan VATAN tarixini, millat ildizini, adabiyotini, siyosatini bilmaydi. Og'iz ko'pirtirib gapirib yurganlarning deyarli bari unda-bunda eshitganlarini chayanaydi xolos.

Asosiy va sevimli mavzulari esa futbol, mo'may daromad, bachkana, isqirt hazillar!

Lekin ulardan Turkiya haqida, Arabiston haqida, Amerika haqida so'rang – aytib berishadi. Bu yaxshi, ammo o'z tarixini bilishmaydi. Bilmaymiz!

Bunday ota-otanasini tanimas farzanddan nimadir kутish mumkinmi?

Aslida buni butun boshli xalq bilishi shart. Shunga qarab ham hech qursa o'zini ziyoli qatlamga qo'shuvchilar bilishsa ham yomon bo'lmasdi deb o'ylayman.

Qani aytib, qaysi dunyoga mashhur adib o'z milliy adabiyotini chuqur o'rganmay turib maktab yarata olgan?

Qodiriyning uyidan musodara qilingan kitoblarni ro'yxatini ko'rganmisiz?

Nemislarning klassigi Gyote avval olmon adabiyotini mukammal o'rganmagan deb o'ylaysizmi? To'g'ri, u Hofizni o'qigach unga taqlidan yozishga o'tgan, lekin ungacha o'rganmaganmi o'z milliy tarixini?

Yana bir olmon Herman Hesse "Jahon adabiyoti ku-

tubxonasi" maqolasida hech bir adabiyotshunos nemis adabiyotini menchalik chuqur o'rganmagan bo'lsa kerak, deb yozadi.

Yoki rassom Dali surriallizm oqimida betakror asarlar yaratgunicha an'anaviy yo'lda ijod qilishni do'ndirib qo'ymaganmi?

Rauf Parfi, Abdulla Orif, Shavkat Rahmon o'z adabiyotini puxta o'zlashtirmay, klassiklardan tinimsiz oziqlanmay turib jahon adabiyotiga o'zini urganida ulardan kim chiqardi?

O'zga tillardan oldin o'z tilingizni,

o'zga tarixdan oldin o'z tarixingizni,


o'zga adabiyotdan oldin o'z adabiyotingizni,

o'zga madaniyatdan oldin o'z madaniyatingizni o'rganmas ekan, sovun ko'pigidek yorilib ketaverasiz.

O'rganganda ham o'rislar yozib bergan kitoblardan emas, bobokalonlar yozganlaridan o'rganmoq kerak!

Ayniqsa, ijodkorlar!

Yozuvchimiz Nazar Eshonqul "O'zbek adabiyoti Qodiriydan boshlanmagan" deganida mutlaqo haq edi!



FIKR

Bu o'rislarning hiylasi. Go'yo-ki ular kelgunicha bizda hech vaqo bo'lmagan! Tariximiz ham ana shunday bo'yab, bejalgan. Bizga yangi, haqiqiy, hech bo'lmaganda HAQIQATga yaqinroq tarix kerak. Buni esa chetdan kelib tuzib bermaydi birov!

Adashmasam, Xorazm xonligida qozi (sudya)likka saylanadigan kishini avval he yo'q, be yo'q zindonga tashlab, u yerdagi ming xil azoblarga solisharkan, keyin chiqarib, mansabga qo'yisharkan. Endi u agar o'z xatosi bilan bir shom'anda begunoh qamalsa, qanchalar azob tortishini biladi! Shuning uchun ham yuragini o'rtaga qo'yib ishlaydi!

Xo'sh, o'rgansa bo'larmikin tarix otadan?

Jangovar Saklar-u Massagetlarning avlodlari qanday qilib bugungidek halim, tepe tebranmas holga kelib qolganini tahlil qilish, birinchi navbatda, ijodkorning vazifasi! Yangi avlodning majburiyati.

Qarang, Amerika aholisining qariyb yarmi qullar edi. Negrlar – Rim, Misr aholisining uchdan ikki qismi qul edi. Nega vaqt o'tishi bilan ulardan qullik xususiyatlari chiqib ketdi-yu, bizdagi mutelik yo'qolmadi? Axir biz ular kabi mutlaqo qul emasdik-ku!

Bularni tahlil qilib beradiganlarni bormi oramizda? Umman qiziqadimi kimdir?

Meni doim arab bosqinidan burungi sivilizatsiyamiz qiziqtirib kelgan. Nahot "Avesto" va uch-to'rt vayronadan boshqa narsa qoldirmagan bo'lsa, bosqinchilar? Va bilimanki, Beruniy, Ibn Sinodek yer yuziga sig'mas daholar ana o'sha yo'q qilingan qadim taraqqiyot mevalaridir.

Ijodkor – ummon degani. Barcha fanlar daryodek quyilib tursagina uning o'zanlari qurmay, kengayib boradi.

Tushuning, boshqa yo'q yo'q. Qanchalik chetdan olishga tirishmang, siz to'la oziqlanolsiz. Haqiqiy ozuqa ota-bobolar yashagan o'lka tarixi, adabiyotida! Qolgan barcha o'rganganlaringiz qo'shimcha o'laroq xizmat qiladi.


Yo tangrim, nega bunchalar yuzaki taqlidga o'ch bu xalq?

Iskandar bosganda yunonona,

arab bosganda arabona, o'ris bosganda o'risona yashab ketavergan, bemalol.

Kerakli tomonlarini olgan holda, o'zligini mahkam ushlab qolishga nega tirishmagan, nega-a?!

JONTEMIR,
shoir



Kino 5 kunda

28-sentabr kuni Toshkentda kinofestival bo'lib o'tadi.

"Ipak yo'li durdonasi" 13-Toshkent Xalqaro kinofestivalining maxsus ishchi guruhlari har bir davlat tomonidan yuborilgan bir qancha filmlarni saralamoqda.

Festivalga 50 dan ortiq mamlakatdan ikki yuztacha

qisqa metrajli film yuborilgan va ular ichidan har bir davlatning faqatgina bitta filmi tanlab olinishi kerak. Bunda, 1-o'rin uchun 15 ming, 2-o'rin uchun 12 ming, 3-o'rin uchun esa 7 ming AQSH dollari miqdorida pul mukofoti beriladi.

Toshkent Xalqaro kinofestivali doirasida "Yangi

avlod kinosi" shiori ostida o'tkazilishi kutilayotgan ko'rik-tanlov qatnashchilari yurtimizning turli hududlarida bo'lib, "Buyuk ipak yo'li" mavzusida qisqa metrajli filmlarni tayyorlashadi.

Tanlov shartiga ko'ra, yosh rejissyorlar o'z filmlarini 5 kun ichida suratga olib, tayyor holda topshirishi kerak.

Qirmizoy HAKIMOVA



XABAR

“Bobur 12 ming askar bilan 100 ming askarni yenggan. O'sha paytda shunday qilish mumkinmi? Yo'q. Bobomizga nima yordam berdi? Vatanparvarlik, g'urur, iftixor, aql-zakovat”.

Shavkat MIRZIYOYEV

“YULDUZLI TUNLAR”

MUTOLAASI

yoxud ikki asar tasnifi


“Bobur dilbar shaxs... Uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan”. Javoharlal Neru tomonidan berilgan bu baho Boburning shaxs sifatidagi qiyofasini mukammal ko'rsatadi. Bobur shoh sifatida ham, ijodkor sifatida ham takrorlanmas shaxsdir. U faoliyati, hayot yo'li bilan odamzodning sabr-toqatiga haykal qo'ygan jasoratli insondir. Adibning “Boburnoma” asari o'zbek mumtoz adabiyotining go'zal namunlaridan biridir. Uning jahon madaniyati tarixidagi beqiyos ahamiyati butun dunyoda tan olingan va e'tirof etilgan.

“Boburnoma” da 1494-1529-yillarda Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston, Hindiston kabi hududlarda bo'lgan tarixiy voqealar haqida ma'lumot berilgan.

Vatan tuyg'usi, unga muhabbat inson ko'ngliga ravshanlik berib turuvchi noyob mo'jizadir. Undan ayro tushgan inson taqdiri xazon yuroprog'i qismati kabi fojiga aylanadi. Chunki u umriga yorug'lik baxsh etuvchi “Vatan” deb nomlangan quyoshdan mosuvo bo'ladi. Biz “Boburnoma” asarida ana shunday mashaqqatli qismat iztiroblarini chekib yashashga majbur bo'lgan, butun umr ona yurtning is-siq taftiga mushtog, mahzun ko'ngil armonlarining suratlarini ko'ramiz. Yurtga muhabbat, unga sog'inchning otash shu'lasini issiq taftini sezamiz.

Bobur tarixiy hodisalarini bayon etar ekan, bo'lib o'tgan voqealar haqida ko'p ma'lumotlar beradi. Ayniqsa, uning bobokaloni Amir Temurga poytaxt bo'lgan Samarqandga muhabbati beqiyosligini ko'ramiz. Asarda “Baldayi mahfuza” deya atalgan shahar haqida izchil, mukammal ma'lumot beradi. Unga o'zgacha mehr-muhabbat, ixlos va havas bilan qarashi sezilib turadi: “Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur... Hech yog'iy qahr va galaba ila munga dast topmog'on uchun “baldayi mahfuza” derlar”.

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarida Amir Temur poytaxt etgan Samarqand taxtida yuz kungina o'tirgan o'n olti yoshli Bobur Mirzo iztiroblari g'oyat ta'sirli ifoda etilgan. Ota shahri Andijonni fitnachilar qo'ldan qutqarmoq uchun ortga qayt-



gan. Boburning o'zi endigina og'ir xastalikdan oyoqqa turgan. U onasi Qutlug' Nigor xonim, onasining onasi Eson Davlat begim, ustozlari Xoja Mavlona qozi (Xo'ja Abdulla) dan “Samarqand Andijon kuchi bilan olingan edi. Agar Andijon qo'lingizda bo'lsa, Xudo buyursa, Samarqandni yana qayta olsa bo'lar” mazmunidagi xatlar olgach, shu safarga otlangan.

Bu hodisalar o'zining barcha tafsilotlari bilan “Boburnoma”da ifoda etilgan. Yozuvchi bu kabi hodisalarini asariga singdirar ekan, “Boburnoma”da bo'lmagan bir tafsilot bilan boyitadi. Bu Qutlug' Nigor xonim tomonidan o'g'liga noyob sovg'a — Amir Temurning qilichi va “xotirotlar bitilgan daftarlari” tortiq etilish voqeasi edi.

“Boburnoma” asarida Boburning onasi va opasi bilan ko'rinish suhbatlashishi, unga bobokaloni Amir Temurdan qolgan meros tortiq qilinishi holatlarini Primqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida tasvirlanganidek tarzda uchramaydi.

Bobur hayoti davomida ko'p xiyonatlar ko'rdi. Fitnalardan ko'ngliga ko'p ozorlar yetdi. Ammo bular uning tabiatidagi ezgu fazilatlarini yo'qota olmadi. Aksincha, o'zining ta'kidlashicha, ota-boblarining an'analarga amal qildi. Xalqimizning “Yaxshilik qil, suvga sol, baliq bilar, baliq bilmasa, Xoliq bilar”, degan so'zini umr yo'lida dasturilamal deb bildi. Yurgan yo'lida insonlarga yaxshilik qilishga, adolatni tiklashga, jasorat va mardlik namunasini ko'rsatishga intildi.

Boburning umri oxirgi damgacha jang-u jadallar

ichida kechdi. Bu yo'lda ko'p ranju alamlarga sabr-u toqat qildi. Ayniqsa, Hindistonda o'z yurtini, farzandlarini, yaqinlarini qo'rsar edi. 1528-yilda Kobulga Xoja Kalonga yozgan maktubida o'z holatini ta'sirli ifodalaydi: “Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutqay. Alaxusus, mundoq toyib va toriq bo'lg'onda qovun va uzumdek mashru xazni kishi ne tavr xotirdin chiqarg'ay. Bu fursatda bir qovun kelturub edilar, kesib yegach g'arib ta'sir qildi. Tamom yig'lab edim”.

Bobur har bir g'iyohda, hayvonot olamida, daraxt-u mevalarda Vatan sog'inchini his qilardi. Boburning ruboiylari, g'azallarida ham Vatanga muhabbat tarannum etilar ekan, beixtiyor qalblarimiz larzaga keladi. Vatanga muhabbat, aslida qanday ekanligini anglashga undaydi.

Bobur o'z yurtiga qaytishga qanchalik urinmasin, unga erisha olmaydi. Minglab odamlarning behuda nobud bo'lishini istamaydi. Buni “Boburnoma” asarida ham uchratishimiz mumkin. Ko'nglida ming bir andisha bilan Hindiston sari yuzlanadi. O'zini dunyodagi eng baxtsiz odam hisoblaydi. Chunki u ona yurtini tashlab chiqdi.

Hind zaminida boburiylar 300 yildan ortiq davr surganligini yozuvchi Primqul Qodirov “Yulduzli tunlar” asarida hayrat va iftixor tuyg'usi ila ta'kidlab o'tadi. Bobur bu iztiroblarini quyidagicha ifoda etadi:

**Tole' yo'qki jonimg'a
balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim,
xatolig' bo'ldi.
O'z yermi qo'yib,
Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin,
ne yuz qarolig' bo'ldi.**

“Boburnoma”dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo'nda, ta'sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqli bilan e'tibordir.

Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar” asari bilan Bobur va uning farzandlari taqdirini to'laonli badiiy qayta yaratishda tom ma'nodagi tarixiy vazifani ado etgan desam, mubolag'a bo'lmaydi.

**Qirmizoy HAKIMOVA,
O'ZJOKU talabasi**

MUTOLAADAN SO'NG

BARKAMOL FARZANDLAR — XALQ XAZINASI

BURCH

Buyuk mutafakkir bobomiz Al-Xorazmiy tarbiya borasida shunday fikr aytgan: “Agar insonda tarbiya bo'lsa, uning bahosi “1”ga teng. Tarbiyaga monand kasbi bo'lsa, 1 raqamining ortidan “0” qo'shib, u insonning bahosi o'nga ko'tariladi. Husnini inobatga olib yana bitta “0”ni qo'shsak, davlati tufayli biz yana bitta “0”ni tirikaymiz va shu tariqa baholanayotgan insonning qiymati yuqorilab boraveradi. Insondagi yaxshi fazilatlar “1” raqamining ortidagi “0”larni ko'paytirib borib, “100000”, “1000000” ko'rinishida bahosini oshiradi. Yaxshi fazilatlar, ya'ni “0”lar soni cheksiz o'sib borsayu, ularning oldida turgan “1” — tarbiya bo'lmasa, ortdagi o'sib borgan nollarning hech qanday qiymati qolmaydi. Tarbiyasiz insonning bahosi “0”ga teng bo'lib qoladi”. Shu bois azal-azaldan ota-bobalarimiz turmush tarzida tarbiya masalasini birinchi o'ringa qo'ygan. “Bola aziz, odobi undan aziz”, maqoli so'zimizning yaqqol isboti.

Jamiyatning bo'g'inlariga e'tibor qarataylik, oilaning kelajagi, obro'-e'tibori unda kamol topayotgan farzandlar kelajagi bilan chambarchas bog'liq. Mahalla, tuman deb nomlanuvchi bo'g'inlar Vatanga kelib birlashadi. Barkamol farzand u ulg'ayayotgan mamlakatning xazinasiidir.

Har bir insonning, oilaning, jamiyatning asosiy vazifasi qobiliyatli farzandlarni kamol topirish, ularni jismonan va ma'nan yetuk, ota-onaga, Vatanga sodiq insonlar qilib tarbiyalash. Bola tarbiyasida muhit va otaloha, tarbiyachi, ustozning o'rni alohida-alohida, muhim va munosib bo'lib, xarakter, iroda, orzu-e'tiqod bolalikdan inson qalbidagi kurtak yozadi.

Bola maktabga borgunicha unga podshohdek muomala qilinadi, ya'ni barcha istaklari so'zsiz bajariladi, sho'xlik va erkakliklari e'zozlanadi. Keyingi bosqichlarda unga asta-sekin tushuntirish berish, o'zimiz jonli andoza bo'lishimiz orqali tarbiyalanib boradi.

Farzand tarbiyasi katta mas'uliyatni talab etadi. Buni his qilgan inson o'z ishini doimo puxta rejalashtirib, uning natija va samaralarini oldindan ko'rib, tasavvur qilib, butun kuch va sahlohiyatini munosib farzand, avlod davomchisini tarbiyalashga safarbar etadi.

Farzandi dunyoga kelgandan boshlab barcha ota-onaga o'z bolasining hayoti to'kis, kelajagi porloq bo'lishini, muvaffaqiyatlarga erishishini istaydi. Shu yerda o'rinli savol tug'iladi: o'zimiz qancha bilimli, iqtidorli bo'lmaylik, bolalarimizga tarbiyani o'z vaqtida yetkazib bera olamizmi?

Hadisi sharifda: “Hech bir ota o'z farzandiga xulq, odobdan

buyukroq meros bera olmaydi”, deyiladi. Darhaqiqat, bola kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi ko'proq ota-onasiga, oilasiga, do'stlariga, ilm olayotgan dargohiga hamda uni o'rab turgan, kundalik faoliyati bilan bog'liq muhitga bog'liq.

Bolaga tushuntirish yoki o'qitishdan ko'ra amaliy ko'nikma ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Biz tili-miz bilan boshqa gap aytib tursag-u, o'zimiz teskarisini qilsak, murg'ak qalb egalari kattalar va ularning gaplariga ishonchsizlik paydo bo'ladi.

Tarbiya bir necha tomondan olib boriladi. Masalan, bolaning aqlan rivojlanishi uchun unga turli kitoblar o'qib bersak, ri-voyat va ibratli hikoyatlar so'zlasak, aql-zakovatini o'stiradigan o'yinlar, mashg'ulotlarga jalb qilsak, maqsadga muvofiqdir. Ruhii tarbiyasini yaxshilash uchun yaxshilik va yomonlik, axloq va odob, quvonch va qayg'u kabi boqiy mavzularda hayotiy misollar bilan sodda, bola ruhiyatiga mos suhbat va tushuntirish olib borish kerak. Tan, jismini tarbiya uchun biror foydali mehnatga jalb qilish, su-zish, yugurish, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'rgatish mumkin.

O'g'il-qizlarimizni har qanday holatda ham rost so'zlashga, yolg'onni, hatto hazil tariqasida ham ishlatmaslikka, va'daga, albatta, vafo qilishga o'rgatishimiz lozim. Yosh bolalar, odatda, o'ta ta'sirchan, ishonuvchan va taqlid qilishga o'ch bo'ladi. Bizning arzimagan, hazil tariqasida qo'llagan yolg'onimiz ham ularning kuzatuvida katta o'zgarishlar sodir qilib, tasavvurlarini loyqalatladi. O'zimiz ham ularga biror narsa va'da qilsag-u, va'dani bajarishning imkonini topilmay qolsa, buni tushuntirib, va'dani bajarish muddatini uzaytirishimiz kerak.

Farzand tarbiyalashda jazolash, urish, so'kish va qattiq cheklavlardan oldin ularni to'g'ri bilan noto'g'ri, foyda bilan zararni ajratishga o'rgatishimiz kerak. Tarbiyada qanday formulalar yaratmaylik, cheklavlari qo'yamaylik, yaxshi va yomonni, oq va qorani amaliy misollar bilan tushuntira bilmasak, ular bu ishlarini bizdan yashirin holda ham qilishlari mumkin.

Har bir ota-onaga farzandini ezgu maqsadga intiluvchan, oldiga qo'ygan maqsadlari sari dadil qadam tashlovchi, matonatli, tashabbuskor qilib tarbiyalatg'ni lozim. Bugun kamol topayotgan farzandlar O'zbekistonning ertangi nurlari kelajagi uchun xizmat qiladi.

**Aziza XASHIMOVA,
Toshkent shahri
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
382-DMTT direktori**

Yo'rg'a tuvaloq

Larbdor tumanidagi Muzbuloq qishlog'i kengliklari va Navro'z kanali qirg'oqlaridagi turfa qushlarning sayrog'i ko'ngillarni yayratadi. Ayniqsa, ular orasida yo'rg'a tuvaloq bo'yidagi uzun oq patlari bilan boshqalaridan ajralib turadi. Mavsumiy o'zgarishlar qushlar uchun ozuqalarni yangilaydi.

Yo'rg'a tuvaloqning uch panjali oyoqlari uzun bo'lib, ilon izi shaklida tez yugura olish xususiyatiga ega. Bu dushmanlariga chap berib, xavf-xatarlardan himoyalashda qo'l keladi. Ko'rinishi yer rangda bo'lgandan unchalik ko'zga tashlanavermaydi. Uchish oldidan tez yugurib havoga ko'tarilgach, qanotlaridagi oq-qora yo'l-yo'l

chiziqchilari ola-bula bo'lib ko'rinadi. Ular cho'l va sahrodagi ovloq go'shalarni makon qiladi.

Ko'z oldimizda baland tog'lar qad rostlab turibdi. Keng yaylovlar poyoniga yetib, sahro bo'ylab harakatlanarkanmiz, biz sayyohlardan chidam va sabr-toqat talab etilardi. Biz guruh a'zolari quyosh, kompas va xaritaga tayangan

holda tevarak-atrofni kuzatganimizda yo'limizda g'aroyib manzaralarning guvohi bo'ldik.

Kutilmaganda shundoqqina oyog'im ostidan yo'rg'a tuvaloq chiqib g'oldi. Shunda notinch qush pitirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Uning butalar tagidagi xas-cho'plardan iborat uyasi arang ko'zga tashlanardi. Uyada bir juft tuxum va yonida polapon chiyillardi. Tuxumlardagi yerrang xol-xol tusli dog'lar dushmanidan himoyalash imkonini berardi. Biz polaponga ziyon yetkazmay, tevarak-atrofni kuzatishda davom etdik.

Yo'rg'a tuvaloq juft-juft bo'lib uya quradi. Tashvishi tuxum qo'yg'undan boshlanadi. Modasi tuxum bosib yotganida narjufti "ov" qiladi. Kovul mevalari, shuvoq poyalari, kaltakesak va turli hasharotlar bilan oziqlanadi.

Oradan bir-ikki kun o'tib, haligatanih uyaga kelganimizda, inatofrida tuxum po'choqlari yotar,

qush bolalari esa jon talvasasiga tushib pana-pastqam joylarga bekinib olishgandi. Ota-onasi esa atrofimizda dam besaranjom bo'lib yugurur, dam qichqirib havoda charx urardi. Biz polaponlar shu yaqin atrofda ekanini anglab, yirtqich qush va ilonlarga oson o'lja bo'lishi mumkinligidan xavotirga tusha boshladik. Har bir buta, chuqurcha va do'ngliklarni qanchalar axtarmaylik, urinishlarimiz behuda ketdi polaponlarni topa olmadik. Keyin tepalikka chiqib olib, voqea nima bilan yakunlanishini sabrsizlik bilan kuta boshladik. Hech qancha vaqt o'tmay ota-onalari uch-to'rt odim narida biqinib yotgan bolalari yoniga uchib keldi.

Mayin par-momiy bilan qoplangan polaponlari hali quvatga kirmagan oyoqlari bilan sekin-asta yurib, kattalar tomon intilardi. Buni qarangi, yaqinidagina tuxumdan chiqqan polaponlarning xatti-harakatlari bizni

beixtiyor hayratga soldi. Ular dam ko'kka olazarak boqar, dam butalar tagiga bekinmoqchi bo'lardi. Ota-onasi havoda chiyillar, atidan do'st-u dushmani yaxshi farqlardi. Yo'rg'a tuvaloqlar bolalarini asrab qolish va kelajak nasli uchun jonini fido qilishdan ham toymaydi. Lekin biz tomon qo'riqchi-posbon — Mamatqul amaki yaqinlashayotganidan ularning shovqin-suroni tinchib qolganday bo'ldi. Nazarimizda, endi ota-ona qush ortiqcha tashvish chekmayotgandek tuyuldi.

Qo'riqchi-posbon chin ma'noda sahro odami.

— O'lkamiz tabiati boy, — deydi Jizzax viloyati ovchilar va baliqchilar jamiyati raisi Mamatqul Jumanov. — "Qizil kitob"ga kiritilgan yo'rg'a tuvaloqlar tuxumi maxsus xonalarda saqlanib inkubatsiya orqali ham ko'paytirilib, jonivorlarga g'amxo'rlik ko'rsatib kelimoqda. Keyin mustaqil yashashga tayyor bo'lgach, ular tabiatga qo'yib yuboriladi.

G'oyat qiziqarli va taassurotlarga boy sayohatimiz yana bir necha kunga cho'zildi. Shunda bu beozor polaponlar hayotining dastlabki kunlari atrofida muhitga qarab tez o'zgarishi va moslasha borinishing guvohi bo'ldik. Vaqt o'tib voygacha yetgach, jussasi kattalari bilan tenglashadi. Keyin mustaqil yashay boshlagach, ota-onalari uchun sinov davri tugaydi. Ozuqa taqchilligi sezilmaydi.

Yo'rg'a tuvaloqlarning ayrimlari o'lkamizning janubiy hududlarida qishlash uchun qolib, moslashib ketgani quvonarli ho'l. Qadimdan ota-bobalarimiz bu noyob qushlarni tutib olgach, asrab-avaylab parvarish qilgan va ularni ov qilishga o'rgatishgan. Ayni kunlarda ham ular ovchilarning koriga yarab, og'irini yengil qilishda yaqin ko'makchi vazifasini o'tamoqda. Ha, qushlar bizning qanotli do'stlarimiz hisoblanadi.

Rahima MURODOVA,
Sharof Rashidov tumanidagi
1-umumta'lim maktabi
o'qituvchisi



O'quvchilar limondan elektr toki hosil qildi

Uchqo'rg'on tumanidagi 1-umumta'lim maktabida fizika fanidan navbatdagi tajriba chog'ida limon yordamida elektr toki olishga muvaffaq bo'ldi. O'quvchilar voltmetr va zarur uskunalardan foydalangan holda limondan elektr toki hosil qilishdi. Ularning bu amaliyoti boshqa hududlarda tengdoshlari hali qo'l umrgan o'ziga xos tadqiqotdir.

Maktabning yosh biologlari izlanish va intilishlari ham fiziklardan kam emas. Ular yaratgan innovatsion ixtiro iqtisodiy farovonlik va jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar mini issiqxona yaratib, unda qulupnay yetishtirishni sinovdan o'tkazishmoqda. E'tiborlisi, issiqxona innovatsion suv ta'minoti va sug'orish texnologiyasiga ham ega.

— Har bir soat biz uchun yangidan-yangi ixtiro va sarguzashtlarni tuhfa etadi. Ustozimiz Hilola To'ychiyoyeva dars jaryonida bizga turli mevalar,

jumladan, limon mevasidan tok olish mumkinligini aytganlarida avvaliga ishonmaganman. Keyin buni darsdan so'ng sinfdosh do'stlarim bilan amaliyotda bajarib ko'rdik. Keyingi gal dars mashg'ulotida ustozimizga ko'rsatib berdik. Bilasizmi, shundan keyin fanga muhabbatim yana bir karra oshdi, — deydi yosh ixtirochi Samandar Ubaydullayev. Kelajak tashabbuskor, intiluvchan, innovatsion g'oyalari bilan hamnafas yoshlar qo'lida.



Bu bilim dargohidan munosib ixtirochilar, kimyogarlar, fiziklar, biologlar yetishib chiqsa, ajab emas.

Maftuna REJABBOYEVA,
Namangan viloyati xalq ta'limi boshqarmasi axborot xizmati rahbari

YOSHLAR VOZI

MUASSIS:
O'ZBEKISTON
YOSHLAR ITTIFOQI
MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR:

Hamza
ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda
№ 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB:

Yelena KALININA
NAVBATCHI MUHARRIR:
Iqbol PARDAYEVA

MUSAHHIH:
Shahribonu RAHMATOVA

Gazeta materiallari tahririyat
kompyuter markazida terildi va
sahifalandi.

TAHRIRIYAT MANZILI:

100083, Toshkent, Matbuotchilar
ko'chasi, 32.

Telefonlar:

(71) 233-22-16,
(71) 236-79-85.



Scan qiling
QR kodini
telefoningizda
yoki kompyuterda
qiling.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi

bosmaxonasida, A-3 formatida chop etildi.
Hajmi — 3 bosma taboq.

Korxonalar manzili: Buyuk Turok ko'chasi, 41.

Indeks: 203, 3203

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma: G-955

Adasi — 725

Boshlangan topshirish vaqti — 21.00

Topshirildi — 20.00